

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**MUSIQA O'QITISH METODIKASI VA XALQ CHOLG'U  
ASBOBLARI KAFEDRASI**

**«MUSIQA DARSLARI ORQALI O'QUVCHI YOSHLARDA  
VATANGA MUHABBAT VA MILLIY G'OYA  
TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH USLUBLARI»**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajaruvchi: Lutfullayev Farid  
Ilmiy rahbar: dots Ergash Xurramov**

**Samarqand 2012**

# **Samarqand davlat universiteti «Musiqa o'qitish metodikasi va xaiq cholg'u asboblari» kafedrasi majlisining № 10 – bayonnomasidan**

## **KO'CHIRMA**

Samarqand  
2012 yil 25 - may.  
Majlis raisi:  
Kotib:

Qatnashdilar: kafedra a'zolarining 14 nafari

**E.K. Djalilov**  
**kat. o'qit A . Odilov**

## **KUN TARTIBI**

«Musiqa o'qitish metodikasi pedagogikasi va xalq cholg'u asboblari » kafedrasida 2011 – 2012 – o'quv yilida talabalarning bajarilgan bitiruv malakaviy ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida

### **SO'ZGA CHIQDI : kat. o'qit. E.K. Djalilov**

**ESNITILDI:** 2011 – 2012 – o'quv yilida bajarilgan bitiruv malakaviy ishlari bilan majlis ahlini kafedra mudiri **kat. o'qit. E.K. Djalilov** tanishtirdi va quyidagilarni bayon qildi:

2011-2012 Musiqiy ta'lif yo'naliishi bo'yicha bitiruvchi kurs talabasi **Lutfullayev Faridning «Musiqa darslari orqali o'quvchi yoshlarda Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish uslublari»** mavzusida bitiruv malakaviy ishi yozdi. Ilmiy rahbari dots E.X.Xurramov. Talaba mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazalari ham bor. Shuning uchun so'zni **Lutfullayev Faridga** bersakda u o'zining bitiruv malakaviy ishining mazmuni bilan tanishtirsa , marhamat.. **Lutfullayev Farid** bitiruv malakaviy ishining mazmun – mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbliji , o'rganish darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amalga oshirilgan ishlar haqida gapirib o'tdi. Shundan so'ng talabaga professor A.Erpgashev va dots.F.Obidovlar savollar berishdi: **Lutfullayev Farid** berilgan savollarga javob berdi.

**Lutfullayev Faridning** chiqishi va savol – javoblardan so'ng mazkur bitiruv malakaviy ishini Yak.DAK da himoyaga tavsiya etish haqida fikr – mulohazalar bildirildi.

### **QAROR QILINDI:**

1. Musiqiy ta'lif yo'naliishi «Musiqa pedagogikasi va cholg'u ijrochiligi » kafedrasida bitiruvchi kurs talabasi **Lutfullayev Faridning «Musiqa darslari orqali o'quvchi yoshlarda Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish uslublari»** mavzusida bitiruv malakaviy ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va bitiruv malakaviy ishi Yak.DAKga himoyaga tavsiya etilsin.

2. **Lutfullayev Faridning** ushbu bitiruv malakaviy ishiga pedagogika kolleji o'qituvchisi **T.Hakimov** taqrizchi deb belgilansin.

3. «Musiqa pedagogikasi va cholg'u ijrochiligi » kafedrasida ushbu qarorni tasdiqlash Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti dekani dotsent **I.Xayrievdan** so'ralsin.

**Majlis raisi:**

**kat. o'qit. E.K. Djalilov**

**Kotiba:**

**N. Qurbonova .**

**ALISNER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti**

**Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari kafedrasi**

**5141000 – Bakalavriat yo'nalishi**

«Tasdiqlayman»

O'quv metodik boshqarma boshlig'i

E.Turumov

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2012 – yil

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha

**TOPSHIRIQ VARAQASI**

1. Ijrochi: **Lutfullayev Farid**  
Ilmiy rahbar: **dots Ergash Xurramov**

2. Mavzu: **Lutfullayev Faridning «Musiqa darslari orqali o'quvchi yoshlarda Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish uslublari»**

Mavzu universitet ilmiy kengashining 2011 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ sonli qarori bilan tasdiqlangan.

3. Mavzuning dolzarbliji, nazariy va amaliy ( iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy texnik, mehnat muhofazasi, hayot xafsizligi va hokazolar) ahamiyati

*Bitiruv malakaviy ishining dolzarbliji shundaki, barkamol avlodni dunyoqarashini shakllantirish hamda musiqiy mashg'ulotlarni yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitish to'g'risida fikrlar ishlab chiqilgan. O'sib kelayotgan talaba – yoshlarni bo'sh vagtlarini to'g'ri tashkil qilish, ularni sinfdan va mакtabdan tashqari musiqiy mashg'ulotlar orqali ma'naviy – madaniy va axloqiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchi yoshlarda musiqiya mashg'ulotlari orqali ma'naviyatni shakllantirishning nazariy asoslarini va amaliy yo'l – yo'rqliqlarini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.*

4. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun tavsiya qilinadigan ilmiy o'quv – uslubiy va boshqa axborot manbalari (darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruzalar matni, monografiya, ilmiy tadqiqot ishlari hamda ilmiy maqolalar va hokazolar)

1. Karimov I.A Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot – irovard maqsadimiz.- T., 2000

2. Karimov I.A Xalqimizning yo'li mustaqillik, ozodlik va tub islohatlar yo'lidir. T., 1996

3. Karimov I.A «Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodini va buyuk kelajakka ishonchdir»

Toshkent.;

2000

4. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». Toshkent.; «O'zbekiston» ,1999

5. Azizzoxjayeva N. «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat» Toshkent :, 2006

6. Akbarov. I. "Musiqa lug'ati" Toshkent – «O'qituvchi », 1987

7. Aliyev M. «Xalq sevgan san'at», Toshkent .; G'afur – G'ulom nomli «San'at», 1993

8. Apraksina O.A. "Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole" Moskva., «Muzika»1980

9. Zunnunov S «Donishmandlar odob – axloq to'g'risida» Toshkent., «O'qituvchi»., 1999

10. Yo'ldoshev J. G' «Ta'lim yanginalish yo'lida» Toshkent., «O'qituvchi»., 2002

11. Karimova D. «Musiqa pedagogik mahorat asoslari» Toshkent., DPU., 2008

5. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha ma'lumotlar olib borish manbalari va joylari (o'quv zali va o'quv xonasi, ilmiy kutubxona, laboratoriya, tashkilot, korxona, ilmiy yoki ta'lim muassasasi  
*Samargand davlat universiteti ilmiy kutubxonasi, o'quv zali, musiga xonalari, Samargand davlat San'at kolleji zallari, Samargand shahar bastakorlar uyushmasi, Musiga va San'at maktablari va hokazo*

6. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar rejasi

<b>Nº</b>	<b>Ishning mazmuni</b>	<b>Taxminiy hajmi ( bet )</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Izoh</b>
1.	Masalaning qo'yilishi, mavzuning dolzarbligi, yechilishi yoki o'rganilishi lozim bo'lgan masalaning mohiyatini yoritib berish. (kirish qismi)	7 – 8 betlar	Sentyabr, oktyabr	<i>Bajarildi</i>
2.	Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni toplash va tahlil qilish. (yordamchi mulohaza va takliflar)	40 – 50 betlar	Noyabr, dekar	<i>Bajarildi</i>
3.	Olib borilgan tajribalar, tadqiqot ishlari natijalarining tahlil qilish va tartibga solish.(paragraf, bob, bo'lim yoki qismlar bo'yicha)	35 – 40 betlar	Yanvar	<i>Bajarildi</i>
4.	Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati bo'yicha xulosa berish hamda tadbiq sohalari va usullariga oid takliflar tayyorlash.	10 – 15 betlar	Fevral	<i>Bajarildi</i>
5.	Bitiruv ishini rasmiylashtirish va uning himoyasi uchun zaruriy ko'rgazmali vositalarni ( jadval, rasmlar, maket, vedio tasma, stend va va hokazo ) tayyorlash.	5 – 7 betlar	Mart, aprel	<i>Bajarildi</i>
6.	Dastlabki himoyaga tayyorgarlik ko'rish va himoyaga chiqish matnini tayyorlash.	10 – 15 betlar	May	<i>Bajarildi</i>
7.	Bitiruv ishi bo'yicha qo'shimcha maslahatchilar.		Iyun	<i>Bajarildi</i>

Ilmiy rahbar:

dots **E.X.Xurramov.**

Kafedra mudiri:

katta o'qit . **E.K.Djalilov.**

**Samarqand davlat universiteti Musiqiy ta’lim yo’nalishi bitiruvchi kurs talabasi Lutfullayev Faridning «Musiqa darslari orqali o’quvchi yoshlarda Vatanga muhabbat va milliy g’oya tushunchalarini shakllantirish uslublari» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi haqida**

**MULOHAZALAR**

**Lutfullayev Faridning «Musiqa darslari orqali o’quvchi yoshlarda Vatanga muhabbat va milliy g’oya tushunchalarini shakllantirish uslublari»** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to’rtta paragraf, xulosa va foydalangan adabiyotlardan iborat.

Kirish qismida bitiruv malakaviy ishining maqsadi, tadqiq qilgayotgan muammoning hozirgi holatiga sharh berilib, musiqiy mashg’ulotlarning tarbiyaviy ahamiyati va hozirgi zamon talablariga to’liq javob bera oladigan uslublar orqali tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda bitiruv malakaviy ishi mavzusining hozirgi vaqtida dolzarbligi, barkamol avlodni dunyoqarashini shakllantirish hamda musiqiy mashg’ulotlarni yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitish to’g’risida fikrlar ishlab chiqilgan.

Musiqiy bilim talaba yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini, badiiy ijro madaniyatini shakllashtirishga, xalq cholg’u asboblarida ijro etilgan kuylar orqali milliy ruh va milliy g’urur tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o’stirishga, fikr doirasini kengaytirishga va dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining **ilmiy maqsadi** - o’sib kelayotgan yosh avlodga Vatan tuyg’usini musiqa mashg’ulotlari orqali shakllantirish hamda ularga milliy g’oya tushunchasini shakllantirishning ilmining pedagogik mohiyati va xususiyatlarini o’rganish, shuningdek, mumtoz pedagogik an’analarni hozirgi davr amaliyotiga tatbiq etishga qaratilgan. Musiqashunos pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan uslub – an’analarning hozirgi madaniy – ma’rifiy amaliyot va tarbiyaviy – mafkuraviy jarayondagi o’rnini belgilashdan iborat.

Bitiruv ishining **obekti** - O’mumiy o’rta ta’lim tizimida, musiqa madaniyati darslarida o’quvchilarini yangi innovation pedagogik texnologiyalar orqali ma’naviy tarbiyalash jarayoni. O’quvchilarda ona – Vatanga muhabbat va milliy g’oya tushunchalarini shakllantirish uslublarini ishlab chiqish xonalar. O’rta maktab musiqa fani darslari o’tiladigan faollar zali va maxsus auditoriyalar bo’lib, **izlanish predmeti** esa «Musiqa fani» darsliklar hamda O’rta maktab musiqa madaniyati darslari, «Musiqa fani» darsliklar hamda o’quvchilarini ma’naviy tarbiyalashda musiqa mashg’ulotlaridan foydalanishning mazmun, shakl va metodlari. Musiqa va musiqiy bilimlarning tarbiya vositasi sifatida talqin etilish jarayoni.

Shu bilan bir qatorda bitiruv malakaviy ishida bir – qancha ilmiy izlanishning **optimal uslublaridan** keng foydalananilgan.

Talaba bitiruv malakaviy ishi oxirida o’z **xulosasini** batafsil ta’riflab o’tib, qanday manbalardan foydalanganini ko’rsatib o’tgan.

Bitiruv malakaviy ishini talaba **foydalanilgan adabiyotlar** ro’yxati bilan yakunlagan.

Men ilmiy rahbar sifatida **Lutfullayev Faridning «Musiqa darslari orqali o’quvchi yoshlarda Vatanga muhabbat va milliy g’oya tushunchalarini shakllantirish uslublari»** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini o’qib chiqib, ilmiy ishning mazmunan to’g’ri yoritilganligiga amin bo’ldim va shu to’g’risida mazkur bitiruv malakaviy ishini Yak.DAK da himoyaga tavsiya etish haqida o’zimning fikr – mulohazalarimni bildiraman.

**Samarqand davlat universiteti Musiqiy ta'lif yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi Lutfullayev Faridning «Musiqa darslari orqali o'quvchi yoshlarda Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish uslublari» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**Taqriz**

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ni ro'yobga chiqarish sifat ko'rsatgichi bosqichiga kirdi. Davlat ta'lif standarti, o'quv dasturi, yangi avlod darsliklarini yaratilishi hamda madaniy rivojlanishni yuqori bosqichlarga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'r'in olishga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini o'qib tanishib chiqdim. Mavzu **Lutfullayev Faridning «Musiqa darslari orqali o'quvchi yoshlarda Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish uslublari»** hamda ularning amalda qo'llanishi to'g'risida yozilgan bo'lib, dars jarayoni misolida keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob va har bir bobi ikkitadan paragraflar hamda xulosa qismidan iborat.

Kirish qismida ushbu mavzuning ilmiy-tadqiqot ishi haqida tushuncha berilgan bo'lib, ishning dolzarbligi, ilmiy yangiligi, maqsad va vazifalari, ishning ob'yekti, predmeti va ushbu ishga doir muammolar hamda talab va takliflar kiritilgan.

1-bob **O'quvchilarni musiqa darslari orqali tarbiyalashda Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirishning nazariy pedagogik asoslari** bo'lib, ushbu bobning paragraflarida. **Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni Vatanparvarlik g'oyasini shakllantirish** yoritilgan.

2 - bob **O'quvchilarda Vatanparvarlik g'oyasini tarbiyalashda musiqiy repertuar tanlashning mohiyati** ni o'rgatishda, talaba – yoshlarning milliy musiqiy tafakkurini rivojlantirish va o'quvchilarni sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovasion texnologiyalardan foydalanish.

Shuningdek, tarbiyalanayotgan musiqiy muhit shart – sharoitiga bog'liq bo'lgan musiqiy madaniyatları orasidagi tafovutlarni alohida ta'kidlash joiz.

Xulosa qismida ushbu bitiruv malakaviy ishi haqida umumiy fikrlar aytib o'tilgan va ilmiy-tadqiqot ishlarining umumiy natijalari ko'rsatilgan.

Muallif tomonidan yozilgan bitiruv malakaviy ishi **Lutfullayev Faridning «Musiqa darslari orqali o'quvchi yoshlarda Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish uslublari»** ni o'rgatadi deb o'ylayman.

Men taqrizchi sifatida **Lutfullayev Faridning «Musiqa darslari orqali o'quvchi yoshlarda Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish uslublari»** bitiruv malakaviy ishini yakuniy Davlat attestasiyasi komissiyasida himoya qilishga tavsiya yetaman.

**Taqrizchi: Samarqand davlat pedagogika kolleji oily toifali o'qituvchisi**

**2012 yil. 2 – iyun  
T. Hakimov**

# **MUNDARIJA**

**K i r i sh.....8**

## **I – BOB.**

### **O’quvchilarni musiqa darslari orqali tarbiyalashda Vatanga muhabbat va milliy g’oya tushunchalarini shakllantirishning nazariy pedagogik asoslari**

- 1.1. Musiqa madaniyati darslarida o’quvchilarni Vatanparvarlik g’oyasini shakllantirish.....16**
- 1.2. Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g’oyasini singdirishda musiqa madaniyati fanining vazifalari.....25**

## **II – BOB**

### **O’quvchilarini musiqa madaniyati darslarida ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashda milliy g’oya va Vatanga muhabbat tuyg’usini shakllantirish mazmuni, shakli, uslublari**

- 2.1. Musiqa darslari jarayonida yoshlarda milliy istiqlol g’oyasini shakllantirishning uslubiy tamoyili.....32**
- 2.2. O’quvchilarda Vatanparvarlik g’oyasini tarbiyalashda musiqiy repertuar tanlashning mohiyati .....42**

**X u l o s a..... .51**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....53**

**Mavzu: «Musiqa darslari orqali o'quvchi yoshlarda  
Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini  
shakllantirish uslublari»**  
(Musiqa madaniyati darslari misolida)

**Reja:**

**KIRISH**

**I – BOB**

**O'quvchilarni musiqa darslari orqali tarbiyalashda Vatanga  
muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirishning  
nazariy pedagogik asoslari**

**1.1. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni Vatanparvarlik  
g'oyasini shakllantirish**

**1.2. Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini  
singdirishda musiqa madaniyati fanining  
vazifalari**

**II – BOB**

**O'quvchilarini musiqa madaniyati darslarida ma'naviy-  
ahloqiy tarbiyalashda milliy g'oya va Vatanga muhabbat tuyg'usini  
shakllantirish mazmuni, shakli, uslublari**

**2.1. Musiqa darslari jarayonida yoshlarda milliy istiqlol g'oyasini  
shakllantirishning uslubiy tamoyili**

**2.2. O'quvchilarda Vatanparvarlik g'oyasini tarbiyalashda musiqiy  
repertuar tanlashning mohiyati**

**Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

## KIRISH

Mamlakatning milliy istiqlol yillarida erishgan yutuqlari jamiyat hayotida uzoq yillar mobaynida to'planib qolgan ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, madaniy – ma'rifiy sohalardagi hatto, kamchiliklarni bartaraf etishning muhim va ishonchli kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. Mustaqillik avvalo milliy o'zlikni anglash, milliy ong, milliy g'oya va milliy tafakkurda tarixiy xotirani tiklash, milliy mafkura, milliy madaniyat asosida milliy davlatchilikning boy an'analarini yangi sifatlar asosida yanada boyitish borasida muhim qadam bo'ldi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan o'zining boy milliy – madaniy qadriyatlari, urf – odatlari, jahon madaniyatiga qo'shgan ulkan hissasi nuqtai – nazaridan alohida o'rinnegallaydi. Juhon ijtimoiy – madaniy taraqqiyoti silsilasida turkiy xalqlar, jumladan qadimdan o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan boy meros butun dunyo tomonidan e'tirof etilmoqda. O'zbek xalqining eng muhim boyligi sifatida ma'naviy – ma'rifiy, axloqy mafkuraviy merosning tan olinishining o'zi ham xalqimizning o'tmish tarixi, bugungi kuniga berilgan munosib bahodir.

Yurtboshimiz I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarida ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi, «ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi» ekanligini alohida ta'kidlab, ta'lim sohasida ijobiy ma'nodagi «portlash effekti»ga, ya'ni yangi ta'lim modelining kuchli samaraga erishilayotganligini ta'kidlab aytgangan edi<sup>1</sup>.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning "halqimizning tayanchi – ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi – bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanish lozim" deb qat'iy qayd etishi tubida juda katta mantiqiy asos mavjud..

O'lkamizda uzoq yillar davomida to'plangan boy madaniy meros xalq, millatni tarbiyalashda, milliy g'oya, milliy tafakkur, milliy mafkuraning shakllanishida juda katta

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176

<sup>2</sup> Каримов И. А. “Ўзбекистон буюк келажак сари” Т. Ўзбекистон, 1998 й. –62 б..

ahamiyatga ega bo'ldi. Qayd etish lozimki, mavjud milliy kadriyatlar eng avvalo tarbiya, jamiyatni ijtimoiy sog'lomlashtirish kabi muhim vazifalarga xizmat qildi.

Pedagogik tizimda an'anaviylikka bu kabi urg'u berilishi bejiz emas, zero, an'anaviy tamoyillar zamonaviy unsurlarni chuqurroq anglashda muhim vosita bo'lib, yosh avlodning ajdodlarimiz merosini o'zlashtirib, milliy -ma'naviy negizda tarbiyalanishi esa, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir shaxsni shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi** yuqorida ta'kidlanganidek, ajdodlarimiz merosini chuqur, ilmiy asosda o'rganish, o'quvchilarda Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish – musiqiy, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ma'naviy yuksak milliy mutaxassislarni tarbiyalash jarayoni bilan bevosita bog'lik bo'lib, uning izlanishida – faqatgina madaniy merosni o'rganib, o'zlashtirish emas, balki ayni vaqtda, mumtoz pedagogik an'analarni hozirgi davr amaliyotiga tatbiq etish, jamiyat hayotidagi eng asosiy masala – barkamol shaxs tarbiyasida musiqa ilmining tutgan o'rnini aniq – ravshan belgilab berishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi** – o'sib kelayotgan yosh avlodga Vatan tuyg'usini musiqa mashg'ulotlari orqali shakllantirish hamda ularga milliy g'oya tushunchasini shakllantirishning ilmining pedagogik mohiyati va xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, mumtoz pedagogik an'analarni hozirgi davr amaliyotiga tatbiq etishga qaratilgan. Musiqashunos pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan uslub – an'analarning hozirgi madaniy – ma'rifiy amaliyot va tarbiyaviy – mafkuraviy jarayondagi o'rnini belgilashdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishning obyekti** – O'mumiy o'rta ta'lim tizimida, musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarini yangi innovation pedagogik texnologiyalar orqali ma'naviy tarbiyalash jarayoni. O'quvchilarda ona – Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish uslublarini ishlab chiqish xonalari. O'rta maktab musiqa fani darslari o'tiladigan faollar zali va maxsus auditoriyalar.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti** – O'quvchilarda musiqa mashg'ulotlari orqali hamda Vatanni madh etuvchi, Vatanga muhabbat va milliy

g'och tushunchalarini kuy – qo'shiqlar vositasida shakllantirish uslublari, hamda ularga musiqa fanlarini o'rganish bo'yicha ta'lim – tarbiya jarayoni, ta'lim shakllari va usullarini shakllantirish.

Umumta'lim mакtab o'quvchilarni milliy g'oya tushunchalarini musiqa darslari orqali shakllantirish bilan bir qatorda, ularning axloqiy sifatlarini shakllantirish jarayoni.

O'rta maktab musiqa madaniyati darslari, «Musiqa fani» darsliklar hamda o'quvchilarini ma'naviy tarbiyalashda musiqa mashg'ulotlaridan foydalanishning mazmun, shakl va metodlari. Musiqa va musiqiy bilimlarning tarbiya vositasi sifatida talqin etilish jarayoni.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi** - Umumta'lim mакtab o'quvchilarga Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini musiqa darslari orqali o'rgatish jarayonida o'rta maktab o'quvchilarining musiqiy sifatlarini rivojlantirish hamda ularda odob – axloq , milliy g'oya hamda Vatan tuyg'usini tarbiyalash samaradorligi oshadi, agar:

- umumiy o'rta maktablarida ma'naviy tarbiyalash jarayonida Vatanni sevishga, uni asrab avaylashga o'rgatishda musiqiy pedagogik usullardan foydalanilsa;

- Ona – Vatan tuyg'usini shakllantirishda musiqiy pedagogik mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlovchi omillar hamda ular imkoniyatidan maqsadga muvofiq foydalanilsa;

- o'rta maktab musiqa madaniyati darsi jarayonida o'quvchilarini musiqa o'quvini tarbiyalashda, yangi pedagogik texnologiyalarning maqbul tizimi ishlab chiqilsa, o'quvchilarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy sifatlarni singdirish samarali kechadi.

#### **Bitiruv malakaviy ishning vazifalari quyidagilardan iborat:**

1. Umum ta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida, o'quvchilarini musiqiy tafakkurini tarbiyalashda, milliy g'oya va Vatanga muhabbat tuyg'ularini o'quvchilar ongiga singdirishning mazmun-mohiyatini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash.

2. O'quvchilarga Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish uslublaridan foydalanishda, musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarini ma'naviy jihatdan tarbiyalash imkoniyatlarini aniqlash.

3. O'sib kelayotgan maktab o'quvchilarini musiqa madaniyati darslarida milliy g'oya, milliy qadriyatlarimiz, ona yurtimizga bo'lgan hurmat va sadoqat, Vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalashning mazmun, shakl, metod va vositalarini belgilash, ularning samaradorligini tajriba-sinov ishlari natijasida aniqlash hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

– Alloma – olimlar ijodida musiqiy – pedagogik qarashlarning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatish;

– Hozirgi an'anaviy ijrochilik maktabi amaliyotida qo'llanib kelinayotgan o'zbek milliy an'anaviy tasnif tizimida o'rghanish orqali ularning ijroviy – badiiy imkoniyatlarini yoritib berish.

**Bitiruv malakaviy ishning yetakchi g'oyasi:** musiqa ilmi – jamiyat ijtimoiy hayotining bir bo'lagi sifatida taraqqiy etib kelgan musiqa san'ati, unda tarixan shakllangan milliy – mahalliy an'analar va shu bilan birga boshqa xalqlar musiqiy – nazariy fikri, avvalo musiqa ilmi asoslari bilan uyg'un holda shakllandi. Bu ilmning pedagogik qamrovda taraqkiy etishida fan predmetining (musiqaning) shaxs dunyoqarashida axloqiy sifatlar, go'zallik haqidagi tasavvurlarning shakllanishi va uni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda muhim vosita sifatida e'tirof etilishi, asosiy yo'naltiruvchi g'oyaviy manba bo'lib xizmat qildi.

O'z navbatida musiqa ilmining nazariy – amaliy asoslari ham pedagogik negizda ishlab chiqildi. hususan, musiqiy tovushning nazariy asoslari – idrok etish va bilish jarayoni bilan bog'lanib o'rganilgan bo'lsa, amaliy asoslari – fan predmetining badiiy – tarbiyaviy xususiyatlari bilan bog'lab talqin etildi.

Bizningcha, madaniy – ma'rifiy va musiqiy – pedagogik sohaga ixtisoslashtirilgan o'quv yurtlarida alloma–olimlar ilmiy merosida ishlab chiqilgan uslub – an'analardan unumli foydalilanigan holda ta'lim berish davr talabi bilan pedagogika fani oldiga qo'yilayotgan eng birlamchi vazifadir. Bu kabi yondashuvning tarbiyaviy xarakteri – birinchidan yosh avlod milliy – madaniy dunyoqarashi, milliy – musiqiy tafakkurning

shakllanishida namoyon bo’lsa, ikkinchidan yoshlarning mutaxassis soha sirlarini egallash jarayonida ilmiy salohiyatning yuksalishida juda katta ahamiyatga egadir.

**Bitiruv malakaviy ishning konseptual – metodologik asoslari.** Markaziy Osiyo pedagogik fikr namoyondalari – Forobiy, ibn Sino, Kaykovus, Jomiy, Navoiy kabi bir qator mutafakkirlarning ta’lim – tarbiyaga oid qarashlari, musiqiy risolalari va didaktik asarlarida musiqaning pedagogik mohiyati ilmiy tarzda asoslab berilgan ta’limotlarga, shuningdek, kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur hamda Respublika Prezidenti I.A.Karimov risolalarida milliy g'oya, milliy merosni o'rganish, an'ana va qadriyatlarni tiklash, yosh avlodni milliy – madaniy ruhda tarbiyalash Vatanparvarlik g'oyalariga tayanildi. Ayni paytda, ilmiy bilishning umumbashariy tamoyillari, insonparvarlik qadriyatlarini o'zida mujassam etgan milliy – mafkura masalalari ham tadqiqotning nazariy asoslarini belgilashda ma'lum ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqot muammosidan kelib chiqib, quyidagi metodlardan foydalanildi: **retrospektiv** (pedagogika, psixologiya, ruhshunoslik, falsafa, tarix, madaniyatshunoslik, musiqashunoslik sohalariga tegishli adabiyotlarning tahlili);

- **qiyosiy – tahliliy taqqoslash** (har bir Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchasini mavzusida yaratilgan asarlarni turkum sifatida tahlil etish va taqqoslash orqali – mazkur tushunchalarini shakllanishida musiqa ilmining o'ziga xos rivojlanish xususiyatlarini o'rganish);

- **analaz va sintez** (o'quvchilarda Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish uslublari orqalia ishlab chiqilgan musiqiy pedagogik asoslarni yakka tartibda o'rganish va yaxlit tizimda umumlashtirish);

- **muammoviy – xronologik** (mavjud ijtimoiy – siyosiy bosqichlarda milliy musiqa san'atining xarakterli jihatlarini o'rganish, taqqoslash, umumiyligi pedagogik holatlar aynanligini aniqlash);

- **so'hbat** (milliy qadriyat, milliy g'oya va Vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirish uslublari haqida, musiqiy ijrochilik maktabi an'analarini davom ettirayotgan o'qituvchilar faoliyatida ko'llanilayotgan ijro uslub – tamoyillari haqida ma'lumot to'plash);

– *ijtimoiy surov* (madaniy – ma'rifiy, musiqiy – pedagogik sohaga ixtisoslashtirilgan o'quv muassasalarining o'qituvchi – talabalari orasida tadqiqotimiz muammolariga doir bildirilgan fikr – mulohazalarni maxsus so'rov anketalari orqali aniqlash);

**Tadqiqot ikki bosqichda amalga oshirildi:** Tadqiqotimizning birinchi bosqichida – ishlab chiqilgan reja bo'yicha ilmiy – pedagogik, musiqiy – nazariy meros maxsus adabiyotlarda tahlil etilib, unda musiqa ilmining pedagogik mohiyati bevosita tarix, falsafa, ruhshunoslik, etika, estetika, musiqashunoslik fanlari qamrovida o'rganildi va musiqaviy – ijroviy jihatdan tahlil etildi va ularning badiiy imkoniyatlari o'rganildi.

Tadqiqotning IKKINCHI bosqichida tadqiq etilgan materiallar muallif tomonidan madaniy – ma'rifiy, musiqiy – pedagogik sohaga ixtisoslashtirilgan o'quv dargohlarida, hamda Samarqand shahridagi 49 – umumta'lim o'rta maktab musiqa madaniyatি darslarida o'quv kurslari ish rejasiga kiritilib, asosan, 4 – 7 sinflar faoliyatida sinab ko'rildi. tadqiqotning assosiy g'oya va qoidalari ma'qullanib, amaliyatga tadbiq etila boshlandi.

**Bitiruv malakaviy ishning yangiligi** kuyidagilardan iborat: O'rta maktab o'quvchilarining Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish uslublarini ishlab chiqish, tadqiqotchining ilmiy ijodida musiqa ilmining pedagogik mohiyati ilk bor yaxlit tizimda yoritildi;

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy ahamiyati** shundaki, milliy g'oya va milliy mafkuramiz shakllanayotgan bir davrda ma'naviy va axloqiy tarbiya vositasi sifatida musiqaning ilmiy – pedagogik asoslari yaxlit tizimda o'rganilib yoritildi.

**Mavzuning ishlanganlik darajasi.** Musiqa ilmi asosan axloq va odob tuyg'ularini shakllantiruvchi ma'naviy – tarbiyaviy omil sifatida istifoda etilar ekan, uning ushbu mu'jizaviy mohiyati pedagogik ilmlar bilan bir qatorda, falsafa, tarix, ruhshunoslik, etika, estetika, san'atshunoslik (musiqashunoslik, manbashunoslik, etnografiya, cholg'ushunoslik) kabi soha asoslari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganilishini taqozo etadi.

"Milliy madaniyatni yuksaltirish avvalo, milliy merosga bo'lган munosabat bo'lib, uni saqlash kelgusi avlodlarga yetkazib berish bilan bevosita bog'lik" deb fikr yuritadi AA.Mavrulov Markaziy Osiyo, xususan, o'zbek madaniyatining rivojlanishida an'anaviy unsurlarni kamol toptirish g'oyasini ilgari suradi.

Tadqiqotimizda unumli foydalanilgan manbalarning yana bir muhim yo'nalishi – musiqashunoslik sohasiga mansubdir. Ta'kidlash lozimki, ushbu tadqiqotlarda musiqa ilmining muammolari pedagogik nuqtai – nazardan yoritilmasada, uning nazariy – amaliy masalalari mavzuimizga bevosita aloqadorligi – ulardan keng foydalanish zaruratini tug'dirdi, xususan, musiqashunos – manbashunos olimlar I.Rajabov, A.Nazarov, A.Rashidova, O.Matyoqubovlarning ajdodlarimiz musiqa merosini o'rganishga doir olib borgan

Tadqiqotimiz mazmun – mohiyatini tashkil qiluvchi muhim va asosiy yo'nalish – pedagogik izlanishlar sirasida esa mavzuimizga dahldor bo'lgan tadqiqotlarda musiqanining pedagogik mohiyati – asosan yoshlarni axloqiy va estetik tarbiyalash g'oyasi bilan bog'lanib o'rganiladi. Masalan, A.Hasanov, B.Azimov, A.Trigulova, H.Nurmatov, Q..Mamirov kabi olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlarda musiqa – go'zallik haqidagi tushunchalar, musiqiy did, musiqa madaniyati, ahlokiy sifatlarni shakllantiruvchi ma'naviy – tarbiyaviy vosita sifatida tahlil etiladi.

Shunday qilib, shaxsning kamol topishida asosiy omillardan biri sifatida taraqqiy etib kelgan musiqanining tarbiyaviy xususiyatlari, turli nuqtai nazarlardan o'zbek olimlari tomonidan tadqiq etib kelingan bo'lsa – da, uning fan sifatida shakllanish tarixiy – evolyusion bosqichlari, nazariy – amaliy asoslarning g'oyaviy negizi va shu bilan birga fan predmetining pedagogik mohiyati yaxlit tizimda o'rganilmaganligi tadqiqotimiz mavzuini belgilab berdi.

**Bitiruv malakaviy ishning haqqoniyligi va ishonchliligi:** shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanishida musiqa ilmining muhim omil bo'lib xizmat qila olish imkoniyatiga, Markaziy Osiyo alloma – olimlari merosida musiqanining pedagogik tadqiqot predmeti sifatida ishlangan nazariyalarga, ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda qo'llanilgan ilmiy – amaliy uslublarga, tadqiqotda ilgari surilgan g'oyalarning o'quv amaliyatiga tadbiq etilishi hamda uning natijalari bilan belgilanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati** shundaki, o'quvchilarda Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish uslublarini ishlab chiqish, unda ilgari surilgan g'oya, fikr – mulohazalar, amaliy – taklif va tavsiyalar – madaniy –

ma'rifiy, musiqiy – pedagogik va san'at sohasiga ixtisoslashtirilgan o'rta maktab musiqa madaniyati darslarida dars berish jarayonida bir qator ma'ruzaviy hamda individual o'quv kurslari ish rejasiga bevosita kiritilib, ilmiy manba sifatida unumli foydalanishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishida himoya qilinadigan qoidalar:**

- Musiqa va musiqiy mashg'ulotlar – pedagogik tadqiqotlar predmeti sifatida
- Markaziy Osiyo alloma – olimlari merosida musiqa ilmining pedagogik asoslari
  - Musiqa ilmi tarkibida milliy g'oya, va Vatanparvarlik tushunchalarini o'rGANISH an'anasining pedagogik mohiyati
  - Musiqiy tarbiya an'analarning hozirgi madaniy – ma'rifiy, musiqiy – pedagogik hayotga tadbiq etilishi.

**Bitiruv malakaviy ishning hayotga tadbiq etilganligi va maqullanganligi:** Tadqiqot materiallari asosida bir qator o'rta maxsus o'quv yurtlarida ma'ruzalar qilinib, muammoning davr nuqtai nazaridan dolzarbli ma'qullangan. Tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalar doirasida o'quv jarayonida olib borilgan amaliy – uslubiy va pedagogik tajribalar o'z natijasini topgan. Bundan tashqari, mavzuga doir bir qator maqolalar konferensiyalar tezislar to'plamida nashr etilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi:**

**Bitiruv malakaviy ishning o'z maqsad va vazifalariga binoan Kirish, II**  
bob , to'rt paragraf, hulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismidan iborat.

## I – BOB

# O'quvchilarni musiqa darslari orqali tarbiyalashda Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirishning nazariy pedagogik asoslari

## 1. 1. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni Vatanparvarlik g'oyasini shakllantirish

Mustaqillik kishilar milliy g'ururini, uni xalq, Vatan, ajdodlar xotirasi oldidagi masuliyatini his qilishda mazmun bilan boyitmoqda. Bunday sharoitda Vatanimiz mustaqilligidan faxrlanish, mamlakatimizda ozod, farovon va erkin hayot qurish yo'lida faol mehnat qilish, hayot jamiyati, yutuqlari, universal texnologiyalaridan foydalanish milliy g'ururni oshiradigan omillardir.

Musiqa inson hayotining ajralmas bir qismi hisoblanib, odamlarning histuyg'ulari, fikrashi, dunyoqarashi asosida yuzaga keladi.

Insoniyat kabi musiqa ham azaliy bo'lib, qadim-qadimda paydo bo'lgan va rivojlanib, shakllanib, ota-bobolarimizning bizga qoldirgan merosi orqali bizgacha yetib kelgan. Musiqaning inson hayotida tutgan o'rni juda katta. Bu to'g'risida o'tmishda ajdodlarimiz ham o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Buyuk alloma va tib ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sino bemorlarni davolashda musiqadan keng foydalangan. Chunki musiqa insonga xushkayfiyat bag'ishlaydi, uning ongida axloqiy fazilatlarni uyg'otadi. Musiqa insonga kuchli tasir ko'rsatishi, o'quvchilarda nafosat tarbiyasini uyg'otishi va ularni g'oyaviy-axloqiy tomonlama tarbiyalashi bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, musiqa insonni go'zallikka undovchi, unda axloqiy-estetik va bunyodkor g'oyalarni uyg'otuvchi ulkan san'at turidir. Shu sababli jamiyatda musiqaga alohida e'tibor beriladi, yani san'atning bu turini keng ommaga targ'ib qilish maqsadida mактабгача tarbiya muassasalarida, maktablarda, kollej-liseylarda, oliy o'quv yurtlarida alohida musiqa fani uchun dars soatlari ajratilgan.

Ona – Vatan tuyg’usini shakllantirishda musiqiy pedagogik mashg’ulotlar samaradorligini ta’minlovchi omillar hamda ular imkoniyatidan maqsadga muvofiq foydalanilsa;

- o’rta maktab musiqa madaniyati darsi jarayonida o’quvchilarini musiqa o’quvini tarbiyalashda, yangi pedagogik texnologiyalarning maqbul tizimi ishlab chiqilsa, o’quvchilarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan ma’naviy sifatlarni singdirish samarali kechadi.

O’zbekiston Rsspublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta’biri bilan aytganda: «Inson o’zligini anglagani, nasl-nasabini bilgan sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg’usi ildiz otib, yuksala boradi.Bu ildiz qancha chuqur bo’lsa, tug’ilib o’sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo’ladi», u o’z taqdirini Vatan ravnaqi bilan bog’liq dsb biladi.

O’zbskiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan hamda «Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida o’z aksini topgan. Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi, Komil inson, Ijtimoiy hamkorlik, Millatlararo hamjihatlik, Diniy bag’rikenglik kabilar ana shunday umummilliyligini g’oyalashni qatoriga kiradi.

Milliy istiqlolimizning asosiy g’oyalari xalqimiz mustaqil taraqiyot yo’lidagi bosh g’oyasidan kelib chiqdi. O’zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo’lidagi bosh g’oyasi — mustaqillikni mustahamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Milliy istiqlol mafkurasingning asosiy g’oyalari o’zining ma’no-mohiyati, falsafasi jozibasi bilan bosh g’oyani xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

*Vatan ravnaqi. Vatan — insonning kindik qoni to’kilgan muqaddas zamin, uni kamolot sari yetaklovchi, hayotiga ma’no-mazmun baxsh etuvchi tabarruk maskandir. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan eng buyuk, bebafo meros, eng aziz xotira. Vatan — ota-bobolarimizning hoki poklari jo bo’lgan, vaqtisi soati yetib har birimiz bosh qo’yadigan muqaddas zamin.*

Vatan — bu xalqning o’tmishi, buguni va kelajagi. Xalqimiz Vatan ostonadan boshlanadi, deb bejiz aytmagan. Kishi ulg’aygan sari uning Vatan

haqidagi tushunchasi ham kengaya boshlaydi. Ostona, uy, mahalla, qishloq, shahar, tuman, viloyat va nihoyat mamlakat darajasiga ko'tariladi. Tushuncha va kechinmalar nuqtai nazaridan esa vatanparvarlik tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo'lib, tashqi muhit va davrlar ta'sirida shakllangan va o'zgarib kelgan ijtimoiy-ruhiy tuyg'udir.

*Vatani bor odamning g'urur-iftixori yuksak, maqsad-muddaolari aniq. bo'ladi. Tog'dek tayanchi — Vatani borligini his etgan inson hayotning har qanday sinovlariga doimo tayyor turadi. Kurrai Zamin — Yer sayyorasi butun jumlai jahonda yashayotgan olti milliarddan ziyod xalqlar uchun Vatan hisoblansa, har bir xalq, uchun taqdiran va tarixan ato etilgan xudud ona-Vatandir.*

Vatanni, ota-onani tanlamaydilar. Ular yaratganning o'zi tomonidan berilgan ulug' va muqaddas ne'matdir. Ana shu ulug' ne'matni, asrab-avaylash, uning sarhadlarini gullatib-yashnatish o'z qo'limizda. Bunday imkoniyatni esa bizga ulug' istiqlol berdi. Barchamizning kindik qonimiz Ota Makon tuprog'iga to'kilgan, barchamiz bir ona — O'zbekistan ko'ksidan sut emganmiz. Endi uni oqlashimiz, ana shu muqaddas yurt farzandi ekanligimizni unutmasligimiz darkor. Ona suti orqali Ona — Vatanga mehr tug'iladi, u farzandlarini buyuklikka, jasoratga yetaklaydi.

O'zbekiston Rsspublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda: «Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgan sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi», u o'z taqdirini Vatan ravnaqi bilan bog'liq dsb biladi.

Odamlarda g'ayrat, erta tongdan qaro tungacha ishlayverish qobiliyati bo'lishi mumkin. Mustamlaka davrida sobiq markaz topshirig'ini bajarishning o'zi yetarli edi. Mustaqil O'zbskistonga esa mutelikdan xoli, mustaqil fikrlaydigan, ishbilarmon, tadbirkor, vatanparvar shaxslar darkor.

Vatanning ravnaqi, avvalo, uning farzandlari kamoliga bog'liq. Bu esa har bir yurtdoshimizni o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatni his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib

yashashga da'vat etadi. Bu esa vatanparvarlik tuyg'usida namosn bo'ladi. Vatanparvarlik — kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaza bo'lgan muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Fidoyilik vatanparvarlikning bosh belgisi hisoblanadi, uning oliv ko'rinishi esa jasoratdir. Bugungi kunda esa bozor iqtisodiyoti sharoitida vatanparvarlikning muhim ko'rinishlaridan biri tadbirkorlik sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tarix vatanparvarlik ttuyg'usini shakllantirishdagi eng buyuk qurollardan biri. O'tmishda Ona Vatan himoyasi, yurt tinchligi uchun jonini fido qilishga tayyor turgan Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi kabi shaxslar bo'lganligi faktining o'ziga kishilarda kelajakka ishonch ruhini mustahkamlaydi.

Umuman vatanparvarlik:

- o'z xalqining tarixini yaxshi bilish va undan g'ururlanish;
- buyuk ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy merosni ko'z qorachig'idsk asrab, kelgusi avloddarga yetkazish;
- ajdodlar urf-odat, rasm-rusum va udumlarini, merosini o'rganib, uning qadriyatga aylangan qismini davom ettirish;
- davlatimiz kelajagi, istiqlolning barqarorligi, keljakning buyukligini chin dildan his etish, shunday keljakni barpo etishga astoydil ko'maklashish, yuzlab fazilatlar kabi xususiyatlarni anglatadi.

Vatanparvarlik shaxsning chinakam e'tiqodiga aylanmog'i uchun bilimning o'zi — dunyo va ilm sirlaridan boxabarlik, naqadar chuqur bo'lmasin, baribir kamlik qiladi. Vatan haqida gap sotib, u qiyin ahvolda qolganda chuchib, ikkilanib, loqaydlik, befarqlik qilib, irodasi, sadoqati zaiflashadigan kishilar Vatanga noloyiq.

Ko'r-ko'rona muhabbat ham Vatan ravnaqiga xizmat qilmaydi, kutilgan natijaga olib kelmaydi. Vatan ishqisi, shu bilan birga shaxsning tanqidiy mulohaza yuritishi, kamchiliklarni ko'rib, ularni bartaraf etish, mamlakati, xalqi, milliy qadriyatlarini takomillashtirish yo'lidagi harakatiga uyg'un bo'lishi lozim. Demak, Vatan ravnaqi, avvalo uning farzandlari kamoli bilan chambarchas bog'liq. Buni

chuqur anglagan davlatimiz rahbari esa bor kuchi, g'ayrati, imkoniyatlarini komil inson tarbiyasiga safarbar etgan. Buni har bir vatandoshimiz, jumlai-jahon ko'rib, bilib turibdi.

Moziy, bugungi kun shundan dalolat bermoqdaki milliy g'oya hyech qachon Vatandan tashqarida ildiz otmaydi. U Vatan ravnaqini belgilab beradigan tamoyillarni o'zida aks ettirsagina kuch-qudrat manbaiga aylanadi. Vatanning ravnaqiga xizmat qilmaydigan yot va begona g'oyalar esa hyech qachon bizning milliy g'oyaga aylanolmaydi. Bunday g'oya qanday libosga o'ralib olmasin, qanday niqob kiymasin, donishmand xalqimiz ularning nayrangiga uchmaydi.

Vatan va uning ravnaqi tushunchasi istiqlol yillarida alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Istibdod davridagi hukmron kommunistik mafkura bor kuchini kishilar ongidagi Vatan tushunchasini bo'zib, soxta, mavhum Sovet vatani g'oyasini singdirishga sarflagan. «O'zbekiston - Vatanim manim» yoki «o'zbegim» deyish millatchilik sifatida baholanib, minglab vatandoshlarimizni qatag'on domiga tortib ketgan.

Bugun u kunlar o'tmishga aylandi. Endi, biz Vatanimiz mustaqil bo'lgan davrda yashamoqdamiz. Endi, bu mustaqillikni asrash, avaylash ham vatanparvarlikning namunasiga aylanmokda. Vatanparvarlik millatchilik emas, balki umuminsoniy tuyg'udir. Fransuz adibi Volter shunday degan edi: «Vatanga bo'lgan muhabbat msni ajnabiylar yutug'idan ko'z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, Vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo'lsa, Vatanimni jahondagi boshqa xalqlarning yutuqlari bilan shunchalik ko'p boyitgim keladi». Bugungi kunda jamiyatimizda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlatimizning iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalqimizning ma'naviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani Vatan ravnaqining asosi bo'ladi.

Bu o'zgarishlar jarayonining ustuvor xususiyati xalqimizning bunyodkorlik faoliyatidir. Bunda ana shu bunyodkorlik salohiyatini to'la yuzaga chiqarish, iqtisodiyotni ilg'or texnologiyalar asosida modernizaqiya qilish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jahonda Ford, Rokfeller, Dyupon, Krupp singari uddaburon, g'ayratli kashfiyotchi tadbirkorlar o'z nomlarini millatlari va vatanlari tarixiga

abadiy yozib qo'ydilar. Mustaqil O'zbekiston ravnaqi ham ana shunday o'z tadbirkorlarimizga bog'liq. Vatan jahon bozorida o'z o'rmini egallaydigan, raqobatbardosh mahsulotlar chiqarishga qodir mutaxassislar tarbiyasi uchun bor kuchini sarflamokda va bunga javoban Vatan farzanlaridan bunyodkorlik faoliyatini talab qilmokda. Vatan ravnaqi uchun bor bilimi, kuchi, salohiyatini sarflash O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolarining muqaddas burchiga aylanmog'i darkor. Zero har birimizning baxtimiz, kelajagimiz Vatan ravnaqi bilan chambarchas bog'liq.

**Yurt tinchligi** — beba ho ne'mat, ulug' saodatdir. Bashariyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik-totuvlikka intilib kelgan. Yurt tinchligi - barqaror taraqiyot garovi. Tinchlikni saqlash va mustahkamlash masalasi umumbashariy muammodir. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyatning asosiy masalalari, birinchi navbatda, tinchlik-totuvlik holatidagina samarali hal etilgan. Shu boisdan ham yurt tinchligi — barqaror taraqiyot garovidir. Tinchlikni saqlash muammosini o'z-o'zidan kishilarning xohish-istagi, orzu-umidlari bilan hal qilib bo'lmaydi. Insoniyat uchun muqaddas bu qadriyatga doimo izchil va qatiy harakatlar tufayligina erishilgan.

Bosqinchilik harakatlari milliy, diniy va boshqa nizolar oqibatida urushlar olib borilishi ming yillar mobaynida jamiyat taraqqiyotiga tusqinlik qilib keldi. O'tgan besh ming yilda insoniyat 15 mingdan ortiq urushni boshidan kechirdi. XX asrdagi ikkita jahon urushida 60 mln kishi halok bo'ldi. Afsuski, bu illatdan insoniyat hanuzgacha to'la qutulish imkoniga ega bo'lmayapti. Urush va nizo, bsqarorlik va buzgunchilik g'oyalari, har qanday g'oya singari avvalo, ba'zi insonlar miyasida paydo bo'lib, so'ngra ma'lum bir guruhlar ongiga singgach, amaliyotga o'tadi. Xuddi shunday fashizm ham, avvalo, Mussolini va Gitler kabilar ongida paydo bo'lgan, so'ngra o'z ortidan odamlarni ergashtirib ne-ne balolarga sabab bo'lgan edi.

O'zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi hamda uni o'z orzu-umidlari, olyi maqsadlari ruyobga chiqishining kafolati, deb biladi. Shu boisdan ham bobomomolar duoga qo'l ochganlarida dastavval yaratgandan tinchlik-omonlik

tilaydilar. Xalqimiz orasida ham «tinchlik bo’lsa, har qanday maqsadga erishish mumkin», degan tushuncha keng tarqalgan.

Lekin tarix saboqlari shundan dalolat bermoqdaki, orzu-niyatning o’zi bilangina uzoqqa borish qiyin. Yurt tinchligi dunyo va mintaqalar tinchligi bilan chambarchas bog’lik. Davlatlar o’rtasida o’zaro ishonch va hamkorlik munosabatlari tobora chuqurlashib borishi hozirgi sharoitda tinchlikning nihoyatda muhim omili sifatida katta ahamiyat va chuqur ma’no kasb etmoqda.

Xalqaro maydonda ruy berayotgan tub siyosiy o’zgarishlar ham tinchlik uchun kurashning ahamiyatini yanada oshirib yubordi. Ko’pchilik mamlakatlar xalqlarining milliy istiqlolni, demokratik erkinliklarini asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazish yo’lidagi harakatlari o’z yurtlari va mintaqalaridagi tinchlik va barqarorlikka bog’lik, ekanligi ravshan. «Qo’shning tinch – sen tinch» maqolining tub ma’nosini dunyo ham, biz ham yanada teranroq anglamoqdamiz.

*Ko’hma tarixga nazar tashlasak, aynan yurt tinch, el omonlikda yashagan davrlardagina xalqimiz moddiy va ma’naviy yutuqlarga erishganiga guvoh bo’lamiz. Xususan, sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug’yek Movarounnahrga xukmronlik qilgan qirq yil mobaynida mamlakatda tinchlik-barqarorlik ustuvor bo’lgani sababli ilm-fan, madaniyat taraqqiy etgan, bunyodkorlik ishlari rivojlangan, ko’hma zaminimiz gullab-yashnagan.* Shuning uchun o’zbek she’riyatining quyoshi Alishsr Navoiy Ulug’bekni dunyodagi barcha podsholardan ustun qo’yadi:

Temurbek naslidin sulton Ulug’bek

Ki, olam ko’rmadi sulton aningdek

Nizolar, mahalliychilik, urug’-aymog’chilik avj olgan Ulug’bek zamonidan keyingi davrlarda esa yurtimizdan fayz-baraka ketdi, ko’xna Turkiston jahon sivilizasiyasidan ancha orqada qoldi. Insonlar qalbini ma’rifat o’rniga jaholat zabt etib, odamlar nafsu havoga berildi, amaldorlar Vatan taqdirini emas, o’zining tor va mayda manfaatlarini o’ylaydigan kimsalarga aylandi. Oqibatda muqaddas ona tuprog’imiz bosqinchi g’animlar oyog’i ostida ayovsiz toptaldi, xalqimiz bosqinchilar qo’liga qaram bo’lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi istiqlolga erishgan dastlabki kundan boshlab tinchlik-totuvlikni, o'z siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini jumlai jahonga e'lon qildi. U o'z xududida tinchlik va barqarorlikni saqlabgina qolmay, mintaqamizdagi beqaror vaziyatlarni hal etishga ham o'z ulushini qo'sha boshladi. Ayniqsa, uning o'zaro harbiy mojarolar tufayli dunyoviy sivilizasiyadan batamom o'zilib, dunyoning eng qoloq mamlakatlaridan biriga, o'ta xavfli tahdid va tajovuz manbaiga aylanib qolgan afg'on masalasini hal etish borasidagi sa'y-harakatlari diqqatga sazovordir. O'zbekiston Respublikasi prizedinti Islom Karimovning taklif va tashabbusi bilan Afg'oniston muammolari bo'yicha BMTning «6+2» guruhi tuzildi va hozirda muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Ushbu guruhing Toshkent Deklarasiyasi esa BMT tomonidan masalani hal etishning yagona varianti sifatida e'tirof etildi. O'zbekiston Respublikasining tinchlik borasidagi siyosati, mintaqamiz va jahondagi xavf-xatarlar hakidagi qarashlari Prezident Islom Karimovning asarlarida, ayniqsa, uning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida, yurtboshimizning BMTning 48 va 50-sessiyalarida so'zlagan nutqlarida juda aniq va batafsil bayon qilib berilgan.

Islom Karimov tinchlikning bugungi kelajak hayotimiz uchun ahamiyatini quyidagicha ta'riflaydi: «Biz — Sharq farzandlarimiz. Sharq mamlakatlarining qasriga bormang, odamlar bir-biri bilan uchrashganda, avvalambor, «Assalomu alaykum!» deyishadi. Ushbu kalom arabchadan olingan bo'lib, «Sizga tinchlik yor bo'lsin» degan ma'noni anglatishini yaxshi bilasizlar. «Salom», ya'ni «tinchlik» so'zi Qur'oni karimda 40 marta uchrar ekan. Bu muqaddas kitobning oyatlaridan birida shunday dsyiladi: «Mehribon Parvardigor tomonidan odamlarga olqish ma'nosida «tinchlik» so'zi aytilur».

Bugungi murakkab davrda turli xil moliyaviy va mafkuraviy manbalardan kuch olib turgan, Afg'oniston va Tojikiston kabi beqaror mamlakatlarda in qurib olgan xalqaro terrorchilik va ekstremizm markazlari millionlab tinch aholiga, butun-butun davlatlarga, jumladan bizning yurtimizga ham harbiy-mafkuraviy tajovuzlar qilishga urinmoqda. Ularning qilgan barcha yovuz harakatlari chippakka

chiqdi. Chunki bugungi O'zbekiston o'zini himoya qilish qudratiga ega. U endi hyech qachon dushmanga oyoqosti bo'lmaydi.

Biz ko'pincha yurt tinchligi iborasini eshitgan chog'da, qo'lida quroq ushlab, Vatan sarhadlarini qo'riqlayotgan jangchini tasavvur qilamiz. Aslida mamlakatning har bir fuqarosi Vatan himoyachisidir. Har birimiz o'z ish joyimizda, ko'chada, maktabda Vatanni, uning muqaddas qadriyatlarini, yurt tinchligini himoya qilishga da'vat etilganmiz. Fidoyi, millatparvar, sadoqatli kishilarning har bir ishi, so'zi, amali, maqsadi Vatan himoyasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Vatanning intellektual boyligi — yosh iste'dodlarni asrabavaylash, ularga imkoniyatlar yaratib berish, ularning qalbini bid'at va jaholatdan musaffo saqlash, ularni yot va zararli g'oyalardan himoya qilish ham yurt tinchligi uchun kurash demakdir.

Yurt tinchligi — Vatan ozodligi va istiqlolli bilan chambarchas bog'liq. Birovga qaram xalq hyech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mamlakatimiz Konstitusiyada Vatan himoyasi, yurt tinchligi uchun kurashish har bir fuqaroning muqaddas burchi ekani qayd etib qo'yilgan. Xalqimizning tinch va osoyishta yashashi, oydin kelajagi Vatan, yurt taqdiri bilan bog'liq. Shuning uchun bugungi kunda har bir fukaro yurtim tinch — men tinch, elim to'q bo'lsa, men ham to'qman. Elimning boshiga kulfat kelsa, mening boshimga ham tegirmon toshi tushadi, demak, yurtim men uchun, men esa yurtim uchun javobgarman, o'zimni, o'z uyimni o'zim asramog'im darkor, degan haqiqatni shior qilib olishi lozim.

Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy yetukligi — yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir. Xalqimiz uchun muqaddas bu g'oya jamiyatdagi turlicha fikr va qarashga ega bo'lgan barcha kuch va harakatlarni birlashtirishga va shu orqali milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

## **1.2. Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda musiqa madaniyati fanining vazifalari**

Bolalar dunyosi beg'ubor olam, eng tinik tuyg'ular, shirin umidlar qanotli orzular baxtiyor bolalikka, tinch yurt farzandlariga yarashadi. Bolalar qalbi tabiiy ravishda ezgulikka intilib, kattalardan mehr – muruvvat kutib yashaydi. Ularning ongi esa doimo biror yangilikni bilishga bu murakkab olam sirlarini tezrok egallahsga harakat qiladi. Odatda bolalar atrofda bo'layotgan voqyea - hodisalarga juda qiziquvchanlik bilan qaraydi va turli bilim va fikrlarni osonlik bilan qabul qilib ulardan chuqur ta'sirlanadi. Ya'ni inson bolalik chog'idanoq kamolotga intilib yashaydi. Komil insonni yaratish ma'naviy sog'lom avlodni tarbiyalash azal - azaldan xalqimizning eng ezgu orzusi bo'lib kelgan.

Musiqa madaniyati predmetini boshlang'ich sinflardan boshlab o'tilishi o'ta muhim bo'lib, o'quvchilarda musiqaga qiziqish, musiqa haqida ilk taassurotlarni tarkib toptirish vazifasini bajaradi. Ayniqsa, 1-sinfdan musiqa predmetining o'tilishi juda katta ahamiyatga ega. Chunki 1-sinfda musiqa talimining poydevori qo'yiladi va o'quvchilarga musiqa nima, u qanday va kim tomonidan yaratiladi, o'quvchilarining yoshi va ovoz xususiyatlariga mos asarlarni tanlab ularga o'rgatish mavzulari ustidan amaliy ishlar bajariladi. Shuning uchun 1-sinfdan boshlab ularni darsga qiziqtirish, musiqani idrok yeta bilish, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ilk musiqa savodini o'rgatib borish asosiy vazifa hisoblanadi.

Xalqimizda tarbiya yeng avvalo oiladan boshlanadi. Oilada farzand dunyoga kelgach, uning manaviyati, dunyoqarashi va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui shu yerda, yani, oilada shakllanadi. Demak, oila-haqiqiy manaviyat o'chog'i, tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy g'oyaga xos ilk tushunchalar inson ongiga oilada singdiriladi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali davomida saqlanib kelinayotgan muqaddas ananalar orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon, e'tiqod, insonparvarlik, ilmga ishtiyoyq va madaniyat ko'nikmalari shakllanadi.

Oila, ota-onas tarbiyasidan keyin bola maktabgacha talim muassasalarida talim-tarbiya oladi. Maktabgacha talim muassasalari bolani matabga, yani maktabdagi talim-tarbiya jarayoniga tayyorlaydi.

Bizga malumki, oila va talim-tarbiya berish maskanlari o'zaro hamkorlikda faoliyat olib boruvchi davlat muassasalari hisoblanadi. Bola tarbiyaning ilk ko'rinishlarini oiladan olsa, maktabgacha talim muassasalari, ya'ni bog'chalarda talim-tarbiyaning mukammalroq turlari bilan tanishadilar. Bu bilim maskanlari hali hyech narsani tushunmaydigan bolaga dunyoni bilish, o'qish, yozishni o'rgatishda ilk ko'nikmalarini beradi. Demak, maktabgacha talim muassasalari talim-tarbiya berishning ilk maskanlaridan biri ekan, u yerda bolalar ongiga milliy ruhda tarbiya berib ularni Vatanparvar, millatparvar buyuk insonlar qilib tarbiyalashni taqozo etadi.

Buyuk ajdodlarimiz Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobi va Alisher Navoiy kabi alloma mutafakkirlarimiz ijodida ham barkamol inson haqidagi yuksak g'oyalar o'z ifodasini topgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, davlatimiz rahbari va xukumatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga juda katta e'tibor berib kelinmoqda va bu yo'nalishda bir qancha qarorlar qabul qilinib, turli tadbirlar amalga oshirilyapti. Biz kelajagi buyuk davlat yaratish uchun kurashar ekanmiz avvalo, ana shu keljakda yashaydigan va biz boshlagan ishni yanada rivojlantirib takomillashtirishi zarur bo'lган farzandlarimiz tarbiyasiga katta e'tibor qaratishimiz lozim.

Hozirgi davrda jahonda yuz berayotgan voqyealar va siyosiy - ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqqan holda xukumatimiz rahbariyati avvalo pedagoglar va madaniy - ma'rifiy soha mutaxassislari oldiga yangi - yangi, zamonaviy vazifalarni quyadi. Yoshlarga hozirgi siyosiy vaziyatni tushuntirish, ularning yosh ongini zaharlashga urinayotgan turli ma'naviy- mafkuraviy hurujlardan ularni o'z vaqtida ogoh etib, himoya qilish eng dolzarb vazifalarimizdan biri bo'lib turibdi. Bu ishni birov ataylab tarqatayotgan o'ta xatarli yuqumli kasallikning oldini olish uchun qilinayotgan shifokorlarning emlashiga o'xshatish mumkin. Afsuski o'ta xafli bu «Yuqumli kasallik», har xil zararli

g'oya va mafkuralar ko'rinishida turli yullar bilan yurtimizga kirib kelib, eng avval ko'ngli ochik, ishonuvchan, soddadil yoshlarimiz, farzandlarimiz ongi va qalbini zahar layapti. Biroq, toki dunyoda taraqqiyotga, ma'naviyatga, adolatga intilish bor ekan jamiyatda ilg'or bunyodkorlik g'oyalari tug'ulaveradi.

Bugungi kunda biz shunday g'oya xalqni farovon turmush, yorkin kelajak, buyuk boshlovchi milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini mavjud va bu g'oyalar yanada takomillashib xalqimizni buyuk kelajak sari boshlab boradi. Bizning fikrimizga maktab o'quvchilari ongiga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini singdirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda musiqa madaniyati fanining imkoniyatlari ham juda kengdir. Bu vazifani talab darajasida amalga oshirish albatta ushbu fandan dars beradigan o'qituvchining siyosiy ongi va bilimiga hamda uning psixologik mahoratiga bog'liq.

Demak hozirgi davr musiqa madaniyati fani o'qituvchisi nafaqat professional ijrochi yetuk nazariyotchi bo'lishi balki siyosiy va pedagogik jixatdan ham ilg'or mutaxassis bo'lishi talab etiladi. Ma'lumki musiqa va qo'shiq, musiqiy oxanglar kishilar ongiga, kayfiyatiga va tarbiyasiga juda kuchli ta'sir etadi. Ma'lum bir kuy yoki qo'shiqlar kishilarga turli kayfiyatlar va tushunchalar hosil qilib, hatto ularning dunyoqarashlarining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Buni bilgan ajdodlarimiz ham qadim – qadimdan yoshlar tarbiyasiga musiqaning imkoniyatlaridan keng foydalaniб kelishgan.

Xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashi, hayotga va voqyelikka munosabatini ifodalovchi xalq og'zaki musiqiy ijodi namunalari, «Alpomish» dostoni va «Shashmaqom» kabi san'at durdonalari milliy madaniyatimiz va ma'naviyatimizning shakllanishiga salmoqli hissa qo'shib kelyapti. Shu o'rinda biz milliy madaniyat deganda faqat kishilarning tashqi ko'rinishi va yurish - turishini emas, balki ularning haqiatgo'y ichki madaniyatini, qalb go'zalligini nazarda tutayapmiz, ya'ni musiqa kishilarning avvalo qalbiga ta'sir qilib, uni poklashga xizmat qiladi. Bu xalqimizning milliy odatlarida, ota- onaga, o'zidan kattalarga hurmat, o'zaro samimiyat va

mehribonlik kamtarlik, bag'rikenglik, muxtojlarga shavqat kabi ezgu ishlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Yuksak milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish hamda turmush farovonligini ta'minlash uchun birinchi navbatda yurtimizda kafolatlangan tinchlik, siyosiy iqtisodiy barqarorlik mayjud bo'lishi bunga erishishning eng asosiy yo'llaridan biri xalqni, avvalo yosh avlodni milliy istiqlol mafkurasi g'oyalari bilan qurollantirishdir, chunki, jahonni mafkuraviy jihatdan bo'lib olish uchun tinimsiz kurash olib borilayotgan vaziyatda faqat kuchli milliy mafkurasini jamiyatni turli xavf - xatardan muxofaza qila oladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi - talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasi tushunchalarini shakllantirish ishlari, xususan, o'rta ta'lim maktablarida ham keng qo'yilgan. Jumladan, haftada bir marta bo'ladigan milliy ma'naviyat darslari tashkil etilgani, har kuni birinchi darslarning O'zbekiston Respublikasi Davlat Madxiyasini kuylash bilan boshlanishi, turli mavzudagi tarbiyaviy soatlar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari tomonidan uyushtirilayotgan turli tadbir va anjumanlar, uchrashuv suhbatlar bunga misol bo'la oladi.

Samarqand shaharidagi va tumanlardagi o'rta umumta'lim maktablarida ham bu sohada ko'plab ibratli ishlar amalga oshirilayapti. Jumladan, turli ilmiy- amaliy semenarlarda tajribali murabbiy - o'qituvchilar bolalarning yoshiga mos ravishda ularning ongiga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalariini singdirishning differensial pedagogik - psixologik dasturini yaratish bo'yicha o'z mulohazalarini bildiruvchi ma'ruzalar bilan chiqishmoqda. Bu o'z navbatida pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish ishlariga ham ijobiyligi ta'sir ko'rsatyapti .

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiyligi o'rta ta'lim maktablaridagi barcha o'quv fanlari qatorida musiqa madaniyati fanining o'qitilishi bo'yicha ham mutaxassislar oldiga yangi - yangi zamonaviy dolzarb vazifalarni qo'yimoqda, musiqa

madaniyati fani birinchi navbatda o'quvchilarning ma'naviy ahloqiy madaniyatini shakllantirishga ularda milliy g'urur va vatanparvarlik nafosat va badiiy didni o'stirishga xizmat qilib, pirovardida ularni haqiqatgo'y komil inson qilib tarbiyalashga o'z hissasini qo'shadi.

Shunday ekan yuqorida aytib o'tilgan vazifalardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki musiqa madaniyati fani bugungi kunda o'quvchilarga musiqiy bilim berish qo'shiq kuylashni o'rgatish va ularni estetik jihatdan tarbiyalash bilan chegaralanib qolmasligi kerak.

Hozirgi kunda barcha fan o'qituvchilari pedagog - tarbiyachi kadrlar oldida dolzarb bo'lib turgan eng muhim vazifa yoshlar ongiga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini singdirishda musiqa madaniyati fanining ham imkoniyatlari juda boy va rang- barangdir. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan.

«O'rta ta'limning davlat ta'lim standartlariga muvofiq musiqa madaniyati fani to'rtta tarkibiy qismdan iborat».

1. Musiqa tinglash
2. Jamoa bo'lib kuylash
3. Musiqa savodi
4. Musiqa ijodkorligi

Albatta har bir darsda bu tarkibiy qismlar bir biri bilan bog'langan ravishda o'tiladi va ular har darsda turli variantlarda o'rinn almashib kelishi mumkin. Darsning maqsadi esa o'z navbatida beshta yo'nalishni o'z ichiga oladi.

- 1.Tarbiyaviy maqsad
- 2.Ilmiy maqsad
- 3.Bilimlarni rivojlantiruvchi maqsad
- 4.Kasbga yo'naltiruvchi maqsad
- 5.Milliy mafkura g'oyalarini singdirish maqsadi.

Bu maqsadlar ham albatta bir – biri bilan bog'langan holda amalga oshiriladi. Dars mavzusi maqsadlardan kelib chiqqan holda o'qituvchi har

bir jarayonida o'quvchilar ongiga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini muntazam ravishda singdirib borishi lozim. Lozim buni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'zining keng dunyo qarashi pedagogik –psixologik bilimi notiqlik qobiliyati va kasbiy mahoratidan unumli foydalangan holda har bir darsga ijodiy yondoshish zarur bo'ladi. Bu esa o'qituvchidan hozirgi davrda dunyoda sodir bo'layotgan voqyealar, ichki va tashqi siyosat siyosiy ijtimoiy vaziyatni tinmay o'rghanib, tahlil qilib, turishni va bu bilimlarni darsda o'quvchilarni yoshiga mos ravishda tushuntira olishi talab qilinadi.

Hozirgi kunda ko'plab bastakorlarimiz va shoirlarimiz tomonidan zamon bilan ham nafas bo'lgan vatanparvarlik ruhidagi muhim tarbiyaviy estetik ahamiyatga ega bo'lgan qo'shiqlar yaratilyapti va bu jarayon hukumatimiz tomonidan munosib rag'batlanтирilayapti. Musiqa madaniyati fanining boshqa aniq fanlardan farqli tomoni shundaki u doimo zamon bilan hatto faollar an'anaviy bayram va milliy qadriyatlarimiz bilan hamohang holda olib borishni o'qituvchidan o'zluksiz ijodiy faoliyatni talab etadi. O'qituvchi har bir darsda o'quvchilarga «Endi esa milliy istiqlol mafkurasi haqatda gaplashamiz» - deb 5-6 minut ma'ro'za o'qishi kerak emas, aksincha u har bir dars mavzusidan albatta ijodiy foydalanib, dars mavzusining mazmunidan kelib chiqqan holda asta sekinlik bilan milliy istiqlol gaplarini o'quvchilarga singdirib borishi maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Aks holda doim bir xilda takrorlanadigan gaplar o'quvchilarni zeriktirib quyishi va bu butunlay kutilmagan natijani berishi mumkin.

Ma'lumki milliy istiqlol mafkurasi o'z mohiyati mazmuniga ko'ra barcha sohaga tegishli siyosiy ijtimoiy, iqtisodiy ma'naviy – ma'rifiy, tarbiyaviy milliy va boshqa g'oyalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu borada o'qituvchi uchun dars jarayonida ijodiy faoliyatlar uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Mutaxassislar aytadigan bo'lsa yurtboshimiz I. A. Karimov aytadi milliy istiqlol g'oyasi bugungi kunda tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan tashqi dunyoda o'zligimizni qanday buyuk ajodolar merosiga, necha ming yillik

tarix betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanligimizni his etib, yashashga bu boyligimizni asrab avaylab demokratik qadriyatlar butun jahon taraqqiyoti bilan oziqlantirib yangi o'sib, kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur.

Mamlakatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rinn olishi uchun ta'lim-tarbiya jarayonini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etilmoqda.

Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlarini yangi avlodni tarbiyalashda ularning barkamol bo'lib yetishtirishda o'ziga hos va takrorlanmas manba bo'lib hizmat qiladi.

San'at inson munosabatlari go'zalligini – fidoiylik, olivjanoblik, ezgulik, yaxshilik,adolat, jasorat, vatanparvarlik kabi tushuncha shaklidagi holatlarni badiiy ifodalash orqali aks ettiradi.

Shunday ekan biz pedagoglar bilan bugungi kunda har qancha ishlasa arziydigan keng ijodiy faoliyat maydoni ya'ni barcha fuqarolar qatorida vatanimizning buyuk kelajagi uchun faxr bilan mehnat qilishi imkoniyati borligidan minnatdormiz.

## **II – BOB**

### **O’quvchilarini musiqa madaniyati darslarida ma’naviy – ahloqiy tarbiyalashda milliy g’oya va Vatanga muhabbat tuyg’usini shakllantirish shakli, uslublari**

#### **2.1..Musiqa darslari jarayonida yoshlarda milliy istiqlol g’oyasini shakllantirishning uslubiy tamoyili**

O’sib kelayotgan yosh avlodga Vatan tuyg’usini musiqa mashg’ulotlari orqali shakllantirish hamda ularga milliy g’oya tushunchasini shakllantirishning ilmining pedagogik mohiyati va xususiyatlarini o’rganish, shuningdek, mumtoz pedagogik an’analarni hozirgi davr amaliyotiga tatbiq etishga qaratilgan. Musiqashunos pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan uslub – an’analarning hozirgi madaniy – ma’rifiy amaliyot va tarbiyaviy – mafkuraviy jarayondagi o’rnini belgilashdan iborat.

Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar – mustaqillik yillirida shakllangan yangi fandir. Bu fan ozod va obod Vatan, erkin farovon hayot barpo etayotgan xalqimizning maqsad-muddaolari va orzu-intilishlarini, bir so’z bilan aytganda, jamiyatimizning shakllanib kelayotgan milliy istiqlol g’oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini o’rgatadi.

Prezident Islom Karimov asarlari asosida tayyorlangan «Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga tayangan holda yozilgan. Ushbu ma’ruza matnlari to’plamida risolada bayon qilingan tushuncha va tamoyillar ancha keng yoritilgan. Mulohazalarning mantiqiy davomiyligini ta’minlash maqsadida risolaning zarur o’rinlaridan olingan fikrlar yoritilayotgan mavzu mohiyatini ana shu tushunchalar asosida sharhlashga harakat qilindi.

Milliy istiqlol g’oyasi jamiyatimiz taraqqiyotining mafkuraviy tamoyillarini ifoda etadi. Shu ma’noda, bu g’oya mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan mafkura to’g’risidagi yaxlit va izchil ta’limotdir. Bu ta’limot o’z tushuncha va tamoyillariga, tarixiy negizlari, ilmiy, falsafiy, dunyoviy va diniy ildizlariga ega muayyan tarixiy zarurat mujassami bo’lgan nazariya hamdir. U aynan shunday nazariya sifatida ijtimoiy voqyeylikning ifodasi tarzida namoyon

bo'ladi, o'ziga xos shakllanish qonuniyatlari va xususiyatlariga ega umummilliy hodisa hisoblanadi.

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini o'rgatishda quyidagilarga alohida e'tibor berish zarur:

- o'quv mashg'ulotlarini olib borishda talabalarning yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qizishlarini hisobga olish;
- ta'lim-tarbiyaning ilg'or, ta'sirsirchan vositalaridan, zamonaniy o'qitish texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- ayrim tushunchalarni haddan ziyod soddalashtirish, ta'limning eskicha uslub va tamoyillarini qo'llash natijasida fanning qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslik;
- ta'lim jarayonida tazyiq o'tkazmasdan ma'rifiy asosda yo'l tutish, yoshlarning mustaqil va erkin fikrlash, bahs – munozara yuritish ko'nikmalarini oshirishga e'tiborni qaratish;
- o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasida o'zaro hamfikrlik va hamkorlik muhitini shakllantirish, mavzuning tushuncha va tamoyillarini sharhlashda hayoti misollar, bugungi dunyoda ro'y berayotgan voqyealar ta'siridan, matbuot, materiallaridan keng foydalanish;
- yoshlarda g'oyalar o'z ma'no-ma'naviyatga ko'ra bunyodkor yoki vayronkor bo'lishi haqidagi hayotiy va haqqoniy tasavvurlarni shakllantirish;
- milliy istiqlol g'oyasining insonparvarlik mohiyatini ko'rsatish asosida mustaqillik biz uchun eng oliy qadriyat, uni asrab-avaylash esa har birimizning muqaddas burchimiz ekanini talabalarning qalbi va ongiga singdirish;
- Milliy istiqlol g'oyasi yurtimizda yashaydigan har bir millat, ijtimoiy guruh, din, partiya yoki qatlam vakili uchun umumiylmezondir.

G'oya va mafkura tushunchalarining mohiyat-mazmuni shundan dalolt beradiki, yosh avlod shu tushunchalar orqali tarbiyalanadilar. Inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham, san'atda ham g'oyalar muhim o'rinni tutadi. Shu ma'noda, insoniyat tarixi — g'oyalar tarixidir.

Xo'sh, g'oya nima, nega unga bu qadar katta e'tibor va ahamiyat beriladi? Ma'lumki, har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z manfaatlari, maqsad-muddaolari, orzu-intilishlarini ko'zlab harakat qiladi. Binobarin, ular hayotdagi ma'lum bir mafkuraga tayanadi.

Xo'sh, mafkura nima, u qanday g'oyalar asosida shakllanadi va qay tarzda jamiyatni harakatga keltiradi? Nega ayrim mafkuralar ba'zi millatlarning, yuksalishiga sabab bo'lsa, ayrimlari butun-butun halqlarni tanazzulga duchor etadi? «Milliy istiqlol g'oyasi» bo'yicha mazkur mashg'ulotimiz aynan shu va shu kabi masalalar talqiniga bag'ishlangan.

«G'oya» tushunchasi. Ma'lumki, inson o'zining aql-zakovati, iymone'tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farq qiladi.

Inson - ongli mavjudot. Ongni shartli ravishda ikkita katta qismga bo'lish mumkin: birinchisi - insonning ruhiy olami; ikkinchisi - fikriy olam, ya'ni tafakkur olamidir. Ruhiy olam (bu sohani ruhshunoslik ilmi — psixologiya tadqiq etadi) o'z tarkibiga sezgilar, idrok, tasavvur, kechinma, his-hayajon, diqqat, xotira va boshqalarn qamrab oladi. Tafakkurning mantiqiy shakllariga tushuncha, hukm va xulosa kiradi (bularni logika, ya'ni mantiq fani o'rganadi).

Falsafaning azaliy qoidalaridan biri - til va tafakkur birligidir. Tilning eng birlamchi mahsuli so'z bo'lgann kabi, tafakkurning dastlabki shakli - tushunchadir. Tushunchalar bir yoki bir necha so'zlar bilan ifodalanadi; ammo har qanday so'z ham tushuncha bo'la olmaydi. So'zlar vositasida anglatilgan tugal fikr gap deb atalishini biz boshlang'ich sinflardanoq bilganmiz.

Inson tafakkuri voqyelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Binobarin, g'oyalar ham inson tafakkurining mahsulidir. Lekin tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtai nazar g'oya bo'la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta'sirchan, zalvorli fikrlargina g'oya bo'la olishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda «g'oya», «mafcura», «ideya» va «ideologiya» tushunchachari ishlatalmoqda. Ideya va ideologiya ko'proq G'arb davlatlarida

hamda rus tilidagi manbalarda uchraydi. Ideya iborasi yunon tilidagi (idea) so'zidan olingan, u ideologiya so'zining o'zagi bo'lib hisoblanadi va tushuncha yoxud fikr ma'nosini anglatadi. Ideologiya (Idea — g'oya, tushuncha, logos — ta'limot) atamasi esa g'oyalar to'g'risidagi ta'limotni anglatadi va ikki xil ma'noda ishlatiladi:

- g'oyalarning mohiyat-mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to'g'risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha bo'lib hisoblanadi;
- muayyan g'oyani amalga oshirish. maqsadga yetish usullari, vositalari, omillari tizimini anglatadi.

G'oyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, ular garchi tafakkurda paydo bo'lsa-da, inson (va jamiyat) ruhiyatiga, hatto tub qatlamlariga ham singib boradi. G'oya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, mahsad sari yetaklovchi ruhiy-aqliy kuchga aylanadi.

G'oya mohiyatan ijtimoiy harakterga ega. Muayyan g'oya odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi, keyinchashk esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elat va millatlar orasida yoyiladi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib etadi.

Har bir narsaning o'z ibtidosi va intihosi, ya'ni boshlanishi va oxiri bo'ladi. G'oyalar ham o'z «umri»ga ega. Ular ham ma'lum makonda va zamonda paydo bo'lishi, jamiyat rivojiga muayyan hissa qo'shishi, kishilarning ongi va qalbidan joy olishi, o'z umrini yashab, joziba kuchi va quvvatini yo'qotgach, tarixiy xotiraga aylanishi ham mumkin. G'oyaga ta'rif berish uchun uning mohiyatini namoyon etadigan asosiy xususiyatlarni sanab o'tish lozim bo'ladi. G'oyaning eng muhim xususiyati - insonni va jamiyatni maqsad sari yetaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanidadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, «g'oya» deb, inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy harakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat

va odamlarni «harakatga keltiradigan, ularni maqsad-muddao sari yetaklaydigan fikrga aytildi.

G'oyalarning turlari to'g'risida yoshlarga musiqa madaniyati darslari orqali batafsil tushuntirish lozim.

G'oyalarning turlari ko'p. Tafakkurning mahsuli sifatida g'oya tevarak olamni o'rnanish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari — ilm-fan, din, falsafa, san'at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq — muayyan bir g'oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Ma'lum ma'noda aytish mumkinki, har bir ong sohasining o'z g'oyalari mavjud bo'ladi.

Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin:

- ilmiy g'oyalar;
- falsafiy g'oyalar;
- diniy g'oyalar;
- badiiy g'oyalar;
- ijtimoiy-sissiy g'oyalar;
- milliy g'oyalar;
- umuminsoniy g'oyalar va hokazo.

Shu bilan birga, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan bog'liq, partiyaviy, sinfiy, etnik g'oyalar hamda qo'lamiga ko'ra farqlanadigan umumbashariy, mintaqaviy va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan g'oya shakllari ham bor.

Diniy g'oyalar deb, har bir diniy ta'limot va oqimning asosini, diniy iymон-e'tiqodning negizini tashkil etuvchi g'oyalarga aytildi.

Ibtidoiy dinlar har bir narsaning jonli ekani, jonning abadiyligi, but va sanamlarning, tabiiy jism va hodisalarning ilohiy quvvatga egaligi to'g'risidagi qarashlarga asoslangan edi. Masalan, hindlarning diniy tasavvurlariga ko'ra, jon ko'chib yuradi, bu hayotda u insonda bo'lsa, keyingi hayotda boshqa jonzotga o'tishi mumkin.

Ilohlarning ko'pligi haqidagi fikrga tayanadigan politeizm dinlari vaqtি kelib monoteistik — yakkaxudolik g'oyasi asosidagi dinlarga o'z o'rmini bo'shatib bergen.

Yakkaxudolik g'oyasi milliy dinlarda (masalan, iudaizmda), ayniqsa jahon dinlari - xristiaplik va islomda o'z ifodasini yaqqol topgan. Xususan, islom dinida Ollohnning yagonaligi g'oyasi asosida uning barcha aqidalari, ruknlari, talab va majburiyatlar shakllangan.

Ilmiy g'oyalar - fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari (prinsiplari), ustuvor qoidalarini (postulatlarini) tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir.

G'oyalarning «hayoti», ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi, boshqa g'oyalar bilan o'zaro munosabati, kurashi va nihoyat, eskirgan g'oyalarning yangilari bilan almashinishi, ayniqsa, ilmiy g'oyalar misolida yaqqol namoyon bo'ladi.

Kadimgi yunon faylasuflari tabiiy jismlarning eng kichik, bo'linmaydigan zarrasi sifatida «atom» tushunchasini kiritgan edilar. Ptolemey-Aristoteldan tortib, o'rta asrdagi Ulug'bek astronomiyasigacha dunyoning markazi Yer deb, hisoblab kelganlar; Yevklid geometriyasi, Nyuton mexanikasi, Darwin ta'limoti ham o'z davrining eng ilg'or ilmiy g'oyalariga asoslangan edi.

Ilm-fan taraqqiyoti atomning bo'linishini, koinot markazi Yer emasligini ham ishonchli dalillar bilan isbotladi; kvant mexanikasi, irsiyat nazariyasi va boshqa ko'plab kashfiyotlar qilindi.

Dunyoga A. Eynshteyn, N. Bor, F. Rezerford, M. Kyuri va boshqalarning nomlarini mashhur qilgan yadro fizikasi sohasidagi kashfiyotlar ham ilmiy g'oyalar asosiga qurilgan. XX asrda insoniyat nihoyatda ko'p ilmiy g'oyalarni amaliyotga aylantirdi. Kosmik raketalar, kompyuter va uyali telefonlar, televideniye va boshqa sohalardagi yutuqlar bunga yorqin misol bo'ladi.

Fan taraqqiyoti o'zluksiz va cheksizdir. Bu jarayonda amaliyotda tasdiqlanmagan, eskirgan qarashlar yangi ilmiy g'oyalar bilan o'rin almashaveradi.

Falsafiy g'oyalar har bir falsafiy ta'limotning asosini tashkil etadigan, olam va odam to'g'risidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardir. Ular bizni o'rabi turgan dunyoni bilish jarayonida, kishilik jamiyatining taraqqiyoti mobaynida to'plangan bilimlarni umumlashtirish, inson hayotining ma'no-mazmuni, uning baxt-saodati kabi masalalar ustida mulohaza yuritnsh asosida shakllanadi.

Insoniyat tarixida turli xalqlarning aql-zakovat sohiblari, dono faylasuf va allomalari turfa xil g'oyalar yaratganlar.(Siz ular bilan falsafa tarixini o'rnanish paytida batafsil tanishgansiz.) Ammo, falsafiy g'oyalar haqida gap ketganda, jahon falsafiy tafakkuri rivojiga beqiyos hissa qo'shgan o'zbek mutafakkirlari yaratgan merosni yodga olmaslik mumkin emas.

Forobiyning fozil shahar to'g'risidagi, tasavvuf daholarining komil inson haqidagi, Ibn Sinoning tana va ruh munosabatiga oid, Alisher Navoiyning adolat va insoniylik borasidagi teran fikrlari falsafiy g'oyalarning yorqin namunasidir.

Badiiy g'oyalar — adabiyot va san'at asarining asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadigan, undan ko'zlangan maqsadga xizmat qiladigan yetakchi fikrlardir. Ular hayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, o'quvchida muayyan taassurot o'ygotadi. Adabiy qahramonlarni sevish, ularga ergashish hollari ham ana shu asosda ruy beradi.

Badiiy ta'sir vositalari juda katta kuchga ega. Inson va jamiyat ongini o'zgartirishda, shaxs ruhiyatiga ta'sir o'tkazishda, odamlarni harakatga keltirishda badiiy adabiyot va san'atning ahamiyati beqiyosdir. Milliy istiqlol g'oyasini targ'ib etish, xalqning ongi va qalbiga singdirishda ham bular muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar har bir xalq na umuman bashariyatning orzu-umidlarini, maqsad-muddaolarini ifodalaydi, erkin hayot va adolatli tuzumni tarannum etadi. Ozodlik va mustaqilllik, adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik g'oyalari shular jumlasidandir. Asrlar mobaynida bunday buyuk, o'lmas g'oyalar xalqlarga kuch-quvvat va ilhom bag'ishlab, ularni o'z erki uchun kurashga safarbar etib kelgan.

Ozodlik g'oyasi - mazlumlarni o'z erki uchun kurashga chorlaydigan, qullik va qaramlikning har qanday ko'rinishini inkor etadigan g'oyadir.

Mustaqillik g'oyasi — eng ulug' va ezgu g'oya. Har bir xalq istiqlol tufayli o'ziga yot va begona tuzumdan, ijtimoiy tazyiqlardan xalos bo'ladi, o'z salohiyatini to'la-to'kis ishga solish, o'zi istagan va o'zi tanlagan yo'ldan borish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Adolat va haqqoniyat g'oyalari — insonning tabiatini va ijtimoiy tuzumning mohiyatini belgilaydigan, qudratli kuchga ega bo'lgan g'oyalardir. Odamlar asrlar mobaynida odil jamiyatni orzu qilib, haqiqat tantanasi uchun kurashib kelgan. Adolat buzilgan yerda umidsizlik va tushkunlik hukm suradi. Adolat tantana qilgan jamiyat yuksaklikka ko'tariladi.

Har bir tarixiy davrda uning ruhini aks ettiradigan, xalqning qadriyatlari va orzu-istiklariga mos keladigan g'oyalalar kishilarining ongi va qalbidan joy olgan. Ta'kidlash joizki, bashariyatning ziddiyatli tarixi mobaynida hayotbaxsh g'oyalalar bilan bir qatorda, soxta va tuban niyatlar, tajovuzkor va g'arazli fikrlar ham ko'p bo'lgan. Binobarin, xalqlar va davlatlar taqdiriga ta'siri, o'zining sifatlariga ko'ra g'oyalalar yuksak yo tuban, bunyodkor yoki vayronkor, ezgu yoxud bo'zg'unchi, hayotbaxsh yoxud tajovuzkor bo'lishi ham mumkin.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, millat taraqqiyotiga, uning yuksalishiga xizmat qiladigan, xalqlarni jipslashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan g'oyalalar yuksak g'oyalardir<sup>2</sup>. Odamlar orasiga nifoq, xalqar o'rtasiga nizo soladigan, kishilarini turli taraflarga ajratib, adovat ko'zg'aydigan tuban fikrlar buzg'unchi g'oyalarga misol bo'ladi. Aslida bunday qabih niyat va soxta shiorlarni g'oya deb atash ham shartlidir. Qaysi ijtimoiy birlik yoki qatlam orasida tarqalgani, qanday aholi guruhlari yoki elat-millatlarni harakatga keltirayotganiga qarab ham g'oyalarni turlarga ajratish mumkin.

Sohiblari, ya'ni g'oyani moddiylashtiruvchi, amaliyotga aylantiruvchi kuch kim ekaniga qarab, sinfiy g'oya, milliy g'oya, umumxalq g'oyasi, umuminsoniy g'oyalalar ham mavjud bo'lishi mumkin. Albatta, muayyan bir xalq ommasini

<sup>2</sup> Ислом Каримов. *Библиография и критика* [улими \* билан курами\*]. «Узбекистон», 7-жилд, 308-бет.

ma'lum bir tarixiy sharoitda harakatga undayotgan g'oya mazmunan umuminsoniy bo'lishi ham yoki tor manfaatlarni ko'zlaydigan sinfiy g'oya jamiyat va inson manfaatlariga zid bo'lishi ham mumkin.

Milliy g'oya xalqning tub manfaatlarini ifoda etadigan, uni o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan g'oyadir. O'z tarixi va taraqqiyotining tub burilish davrlarida har qanday millat va xalq kelajagini belgilaydi, unga yetishishning o'ziga mos yo'llarini tanlaydi. Ana shu jarayonga xos ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yo'nalishlar bilan barcha g'oyaviy tamoyillarini ham belgilab oladi. Bunda butun millat uchun umumiyl bo'lgan g'oyalar nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan hamda «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida o'z aksini topgan. Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi, Komil inson, Ijtimoiy hamkorlik, Millatlararo hamjihatlik, Diniy bag'rikenglik kabilar ana shunday umummilliyl g'oyalar qatoriga kiradi.

Yoshlarning axloqiy sifatlarini shakllantirish muammosining dolzarblii barkamol avlodni manaviy dunyoqarashini shakllantirish hamda kamol toptirish hozirgi vaqtning yeng dolzarb masalasi bo'lishi bilan birga Davlat ahamiyatiga ega bo'lganligi, ozod-obod Vatan barpo yetishdek ulug' va oliyjanob maqsadlarga erishish uchun jasurlik va fidoiylik ruhida tarbiyalash, Prezidentimiz olib borayotgan izchil siyosatni chuqur targ'ib qilish, o'zbek xalqining ulug' mutafakkirlari qutlug' merosidan yoshlarimizni bahramand qilish, milliy istiqlol g'oyalariga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalaydi.

Malumki, musiqa sanati o'quvchilarni manaviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda yeng asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Musiqa darsi va darsdan tashqari mashg'ulotlari sanat darsidir. Bu kishilarni yemosional hissiy jarayoniga tasir qilib, ularda ijobjiy sifatlarini shakllantiradi. Bu yesa o'quvchilarning yoshlik davridan ulardagi ijobjiy fazilatlarini shakllantiradi. Sanat inson ruhiy olamining, hayotni badiiy tadqiq etadi.

Musiqa haqidagi bilimlar doirasi, musiqa talimi va tarbiyasida asosiy omillardir. “Milliy dastur va talim to’g’risida”gi qonun talablaridan kelib chiqib, yuksak va manaviy ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashni taqozo yetadi. Ayniqsa, xalq talimi tizimidagi musiqa talimtarbiyasidagi mazmunini qayta fikrash jarayonida milliy musiqamiz tarixini, madaniy merosimizga boy ananalarimiz har tomonlama o’rganilib yosh avlodni manaviy va axloqiy fazilatlarini tarbiyalab shakllantirish vazifalarini musiqa o’qituvchisi zimmasiga yuklaydi. Demak o’qituvchi musiqa sanatining nazariy va amaliy sohalarida bilim va malakalarga ega bo’lish bilan birga musiqamiz, madaniyatimiz va manaviyatimiz haqida ham puxta bilimga ega bo’lishi kerak.

“Musiqa madaniyati” o’quv fani orqali ushbu vazifalarni bajarishda bizga albatta darslik qo’llanma va unga kiritilgan asarlar katta yordam beradi. O’quv rejasiga kiritilgan asarlar hajm jihatidan kichik bo’lsa-da, lekin mazmunan boy, o’quvchilarni axloqiy tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Misol uchun, jamoa bo’lib kuylash uchun berilgan “Salom maktab”, “Kichkintoymiz-gijgingtoymiz”, “Yaxshi bola”, “Onajonlar bayrami”, “Chittigul”, “Quvnoqlar qo’shig’i” asarlarini o’quvchilarga o’rgatish davomida ularda odob-axloq, Vatanni sevish, ota-onani, kattalarni hurmatlash, tabiatni, go’zallikni sevish kabi ijobjiy fazilatlarni uyg’tib borishimiz mumkin. “Salom maktab”, “Yaxshi bola” kabi qo’shiqlarning mazmuniga e’tibor beradigan bo’lsak, ularni o’rganish jarayonida bolalar kattalarni, ota-onani hurmat qilish, yani salom berish, ular buyurgan ishlarni “xo’p bo’ladi” deb bajarish, maktabda a’lo baholarga o’qish kabi ko’plab ijobjiy fazilatlarini o’zlarida shakllantirib boradi. “Onajonlar bayrami” qo’shig’i orqali bolajonlar dunyodagi eng ulug’ zot ona ekanligi, ularni har doim sevishimiz, ularga doimo tazimda bo’lishimiz kabi axloqiy qadriyatlarga ega bo’ladilar.

## **2.2. O'quvchilarda Vatanparvarlik g'oyasini tarbiyalashda musiqiy repertuar tanlashning mohiyati**

**Vatan mehri** – oliy qadriyatdir. O'z Vatanini sevmagan, millatini qadriga yetmagan, o'zganing ham, bashariyatni ham kurrai zamin obodonligini ham qadriga yetmaydi. Bu ham – haqiqat. Demak, Vatanga sadoqat – haqiqatga sadoqatning, millatga mehr, ahli bashar mehrining ibtidosidir. Busiz na adolat g'alaba qiladi, na haqiqat yuzaga chiqadi, na insonning o'z shaxsiga e'htiromi shakllanadi, chunki Vatan mehrini yo'qotgan shaxs oyog'i ostidagi zaminni ham yo'qotadi, go'yo tayanchsiz muallaq qoladi.

### **Musiqiy g'oya iborasi.**

Musiqa madaniy hayotimizda keng qo'llaniladigan inson shaxsini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir.

Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosi va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok yetishga va qadrlashga o'rgatadi.

Musiqa dunyoqarashni shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli tasir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy-g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir.

Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nosir Al-Forobiy "Bu fan tanning sog'ligi uchun foydali" degan edi.

Bobomiz, shoir Sadiy aytgan yedi: "Musiqa insonga tez tasir yetadi, hissiyotini tez rivojlantiruvchi vositadir. Musiqa inson ruhiyatini ajralmas bir qismidir".

Musiqa insonni madaniyatli, sof aql yegasi, go'zallikni his yeta biladigan, kasbiga, Ona Vataniga mehr qo'yadigan qilib tarbiyalaydi.

Bu oliy maqsadlarni amalga oshirish uchun musiqa o'qituvchisining oldiga qo'yilgan vazifalar quyidagilardir:

1. O'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va mehr-muhabbatni oshirish;

2. Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik va his-tuyg'ularni rivojlantirish;
3. Asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash;
4. Musiqa darslarida kasb-hunar va mehnatga nisbatan o'quvchilarda ishtiyoq uyg'otish kabi ishlarni amalga oshirish kerak.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchiga bog'liq, har qanday san'atkor ham maktabda musiqa darslarini olib borolmaydi. Buning uchun, musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga yega bo'lgan shaxs bo'lmos'i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar nazariyasining amaliy sohalaridan, musiqa o'qitish metodikasi fanlaridan chuqur bilimga yega bo'lmos'i kerak.

Musiqa o'qituvchisi musiqa san'atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko'nikma va tajribaga yega bo'lishi lozim, uning cholg'uchi, xonanda va xor dirijyori, jo'rnavozchi va amaliyotchisi sifatida ish olib bormos'i lozim. Musiqa o'qituvchisining ijodkorligi shundaki, u bir soatlik darsga kirish uchun ssenariy muallifi, uning ijrochissi va rejissyori sifatida ish tutadi. Shu bois musiqa darsi san'at darsi deyiladi. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi turlarini tashkil yetish va boshqarish maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllarini rivojlantirishdan iborat.

Mustaqil Respublikamizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, manaviy va madaniy jihatdan jahonning yeng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rinn olishda o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. O'zbekistonning "Talim to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra 9 yillik umumiyl o'rta talim joriy yetildi.

Talimni mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda musiqa predmeti bo'yicha konsepsiadagi ishlar ishlab chiqildi.

1992-yil 25-noyabrda "Marifat" ro'znomasida musiqa talim-tarbiyasining konsepsiysi loyihasida musiqa talimining milliy va ilmiy asoslari, mazmuni, tuzilishi va tabaqlanishi, musiqa o'qituvchisiga bo'lgan zamonaviy talablar va

talimning ilmiy-uslubiy taminoti bayon yetiladi. Bugungi o'zligimizni anglash, o'z taqdirimiz va farzandlarimiz istiqbolini yaratish imkoniyatiga yega bo'lган Mustaqil O'zbekistonda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini anglash shartdir.

O'zbekistonda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash, umumtalim maktablarida yoshlarni badiiy tarbiyalash va kamol toptirish hamda hozirgi kunimizni to'laroq idrok yetish uchun yeng avvalo tariximizni yaxshi bilmoqlik kerak hisoblanadi. Chunki har bir yangilik, tarixiy bog'lanish orqali amalga oshiriladi.

Barcha fanlar qatori musiqiy talimda ham davlat talim standartlarini joriy yetilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi.

Musiqa talimidan, davlat talim standartlari asosida malakalari bilan birga qilinadigan yirik davlat talim standartlari orqali yangi talim mazmuni o'quvchilarning, musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularga kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik hislatlarini bajarish vazifalarini amalga oshirish kerak. Yetmish yildan ortiq sovet ittifoqi tizimi tazyiqida bo'lган Vatanimiz 1991 yili 31 avgustda ajdodlarimiz orzu qilgan mustaqillikka erishdi. Mustaqillikka erishgach, yurtimizga hamma sohalarda ko'pgina islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bularning hammasi mustaqillikni mustahkamlash, xalqimiz orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish, fuqarolarimiz manfaatlarini himoya qilish uchun xizmat qiladi.

Bu o'rinda milliy g'oya tushunchasi yendilikda milliy istiqlol g'oyasiga aylanadi. Mustaqilligimizni mustahkamlashda milliyligimizga tayanib ish olib borilsa, milliy g'oya va uning mazmun-mohiyatini xalqimiz ongiga yetkazishda qiyinchilik tug'ilmaydi. Demak, milliy g'oya o'z nomi bilan xalq va uning mustaqilligini ifodalaydi. Dini, e'tiqodi, jamiyatda tutgan o'rnidan qatiy nazar bu g'oya yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolarning umummilly maqsadini belgilab beradi va uni ro'yobga chiqarishga chorlaydi. U mamlakatimizdagi ko'p millatli xalq ongi va qalbida "O'zbekiston-yagona Vatan" degan tushunchani shakllantiradi va uni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Milily istiqlol g'oyasi xalqimizning yuksak manaviyati, anana va udumlariga tayanadi, adolat, erkinlik, mustaqillik bilan bog'liq tuyg'ularni aks yettiradi. Uning mohiyati asrlar davomida intilib kelingan va uzoq yillik kurash orqali qo'lga kiritilgan mustaqillikni saqlash va mustahkamlashdan iboratdir. U Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligini taminlashga xizmat qilishi kerak. Fuqarolarning ongi va qalbida mustaqillikka sadoqat, kelajak va ozodlik haqida qayg'urish, o'zligini, xalq, Vatan qadr-qimmatini anglash va uni himoya qilish milliy istiqlol g'oyasining mohiyatini belgilaydi.

Maktabda ilk bora qadam qo'ygan bola avvalo, salomlashishni o'rganishdan boshlaydi, chunki o'zbekona g'urur, milliyligimiz belgisi hisoblanadi. 1-sinf uchun berilgan bastakor N.Norxo'jayevning P.Mo'min sheriga bastalangan "Salom bergen bolalar" qo'shig'ini olib qaraylik:

Salom bergen bolaning o'zi odobli,  
Kulib turgan yuzlari go'yo oftobli

Naqorat:

Salom berish bu a'lo alomat,  
Salom bergenlar bo'ling salomat.

Ushbu qo'shiq orqali o'quvchilarimiz ongiga "salom" so'zining muqaddasligi, o'zbekona milliy urf-odatlarni singdirib boramiz.

Yuqorida qayd etilganidek, g'oya bu – maqsad-muddaolar sari yetaklaydigan ijobiy fikrdir. Dars davomida o'quvchilarga o'rgatiladigan qo'shiqlar orqali ularda ana shunday ezgu g'oyalarni uyg'otamiz va asta-sekin ushbu fikrlarimizni milliy g'oyaga aylantiramiz. Chunki, salom berish, kattalarni hurmatlash, ota-onani qadrlash, yaxshilik qilish, bilim olish, milliy qadriyatlarni e'zozlash kabi tushunchalar milliy g'oyaning eng kichik, eng sodda ko'rinishlari hisoblanadi. Ta'lim berish jarayonida o'quvchilarni milliy o'zbekona ruhba tarbiyalasak, ko'zlangan maqsadga erisha olamiz, ya'ni milliy g'oyani ular ongida uyg'otib shakllantiramiz.

Darslikda jamoa bo'lib kuylash faoliyati bo'yicha ham milliy g'oyani o'zida aks yettiruvchi asarlar berilgan. Masalan: "Maktabim", "Chamanda gul", "Navro'zim-sho'x sozim", "Sog'lom avlod qo'shig'i", "Ota-onalarga", "O'zbegimdan aylanay", "Vatan-jonim Vatanim" kabi asarlarda Vatanga muhabbat, milliy g'urur, ota-onaga hurmat va boshqa ko'plab ijobiy xususiyatlar ifodalangan bo'lib, ular o'quvchilarni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalashda samarali tasir ko'rsatadi.

Milliy g'oyaning bosh omili yurt tinchligi, hisoblanar ekan, quyida jamoa bo'lib kuylashda vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlar tashkil yetadi. Shoir Safar Barnoyev va bastakor Shermat Yormatovlar hamkorlikda yaratgan "Sog'lom avlod qo'shig'i" asarini olib qarasak:

Quyosh bo'lsin, oy bo'lsin,  
O'zbekiston boy bo'lsin,  
Menga atlas, ukamga  
Gijinglagan toy bo'lsin.

Bu oddiy bola tilidan olingan so'zlar bo'lib, hali o'zi ko'p narsani tushunmasada, har doim tinchlik bo'lsin, O'zbekiston boy bo'lib gullab yashnasin deb kuylanmoqda. Ana shu tushunchalardan boshlab milliy g'oyani o'rgatishni boshlaymiz. Yoki bo'lmasa, Hikmat Rahmat sheri va N.Norxo'jayev musiqasi asosida yaratilgan "O'zbegimdan aylanay" qo'shig'iga e'tibor bersak:

O'zbekiston ona yurt,  
Dunyoda durdona yurt,  
Xalqi tanti mehnatkash,  
Do'stlikda yagona yurt.

Hammanni teng siylaydi,  
Tinchlik omad tilaydi,  
O'ylagani yaxshilik,  
Kundan kunga gullaydi.

Ushbu asarda ona Vatanimiz O'zbekiston, uning biz uchun azizligi, mehnatkash, mehmondo'st xalqi, barcha xalqlar bilan do'stona munosabatda bo'lish, tinchlik barqaror bo'lib kundan-kunga gullab-yashnashi kuylangan bo'lib, milliy istiqlol g'oyasining asosini tashkil yetadi.

Qolaversa "Chamanda gul", "Navro'zim sho'x sozim" kabi qo'shiqlari ham berilganki, bu qo'shiqlarni o'quvchilarga o'rgatish davomida biz ularni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirib boramiz. Bu yesa milliy g'oyani tashkil yetuvchi asoslardan hisoblanadi va o'quvchilar ongida milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda bizga yaqindan ko'mak bo'ladi.

Shunday qilib 1-2-sinf o'quvchilarida milliy g'oyani shakllantirishda ularning yosh xususiyatiga, ovoz diapazoniga e'tibor bergan holda xalq kuy va qo'shiqlarini, vatanparvarlikni o'zida aks yetgan barkamol avlodni tarbiyalay olamiz.

3-sinf "Musiqa madaniyati" faniga mazmun jihatidan milliy g'oyani aks yettiruvchi, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson kabi g'oyalarni anglatuvchi asarlar kiritilgan. Milliy g'oyaning shu kabi asarlarini o'zida aks yettiruvchi asarlarga "Vatanjonim-Vatanim", "Vatan kutar", "Yosh askarlar qo'shig'i", "Men g'unchaman", "Keng Turkiston" kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ushbu asarlarda vatanparvarlik, xalqparvarlik asosiy o'rinni yegallar ekan, ularning bosh mavzusi milliy g'oya hisoblanadi. Po'lat Mo'min sheri va D.Omonullayeva musiqasi asosida yaratilgan "Vatanjonim-Vatanim" qo'shig'i misolida so'zlarimiz isbotini ko'ramiz:

Vatanjonim – Vatanim,  
Ko'zim quvnab ko'rGANIM.  
Istiqloldan kulGANIM,  
O'zbekiston GulSHANIM !

Bu qo'shiqni ilk bor tinglagan har bir bola ongida Vatan nima? degan savolga javob topadi va Vatanni sevish, istiqlolni, mustaqillikni qadrlash kabi ijobjiy xislatlar shakllanadi.

Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, komil inson, millatlararo totuvlik g'oyalari milliy istiqlol g'oyasining bosh mavzusi ekan, har bir sohada ularni o'quvchi-yoshlar ongida shakllantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, san'atning musiqa sohasida ham.

4-sinfda maktab repertuarida "Hur respeblikam", "O'zbekistonim", "Temur bobom-mening bobom", "Vatan mehri", "Diyorimson", "Biz askarmiz" kabi vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlar mujassamlashganki, ushbu asarlarni o'quvchilarga o'rgatish davomida yuqoridagi milliy g'oyaning bosh mezonlari bizga yordam beradi.

Milliy g'oyani shakllantirishda Vatan haqidagi qo'shiqlarning ahamiyati katta ekan, shu o'rinda 4-sinf darsligiga kiritilgan "Hur Respublikam" qo'shig'iga e'tibor qarasak:

Erk quyoshi ziyyosidan topding baxt-iqbol,  
Qadoshlikda yo'ling porloq nurli istiqlol,  
Ona Vatan ko'rkidursan yashna top kamol,  
Ko'rkar diyor, O'zbekiston serquyosh o'ljam,  
Senga sharaf, senga olqish hur Respublikam.

Qo'shiq so'zlarining mazmunidan ham malumki, unda vatanparvarlik, xalqparvarlik, qardoshlik kabi ijobjiy tuyg'ular to'g'risida kuylangan.

Buyuk ajdodlarimiz bizning milliy iftixorimizdir. O'sib kelayotgan yosh avlod qalbida ularga muhabbatni singdirish, milliy g'urur, iftixorni his qilishga omil bo'ladi. Ana shunday bobokalonimiz Amir Temurga bag'ishlangan "Temur bobom-mening bobom" qo'shig'i o'quvchi-yoshlar uchun sevimli asardir.

## Xulosa

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning "halqimizning tayanchi – ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi – bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanish lozim" deb qat'iy qayd etishi tubida juda katta mantiqiy asos mavjud..

O'lkamizda uzoq yillar davomida to'plangan boy madaniy meros xalq, millatni tarbiyalashda, milliy g'oya, milliy tafakkur, milliy mafkuraning shakllanishida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qayd etish lozimki, mavjud milliy kadriyatlar eng avvalo tarbiya, jamiyatni ijtimoiy sog'lomlashtirish kabi muhim vazifalarga xizmat qildi.

Mustaqillik avvalo milliy o'zlikni anglash, milliy ong, milliy g'oya va milliy tafakkurda tarixiy xotirani tiklash, milliy mafkura, milliy madaniyat asosida milliy davlatchilikning boy an'analarini yangi sifatlar asosida yanada boyitish borasida muhim qadam bo'ldi.

Ajdodlarimiz merosini chuqur, ilmiy asosda o'rganish, o'quvchilarda Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish – musiqiy, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ma'naviy yuksak milliy mutaxassislarni tarbiyalash jarayoni bilan bevosita bog'lik bo'lib, uning izlanishida – faqatgina madaniy merosni o'rganib, o'zlashtirish emas, balki ayni vaqtda, mumtoz pedagogik an'analarni hozirgi davr amaliyotiga tatbiq etish, jamiyat hayotidagi eng asosiy masala – barkamol shaxs tarbiyasida musiqa ilmining tutgan o'rnnini aniq – ravshan belgilab berishdan iborat ekanligi ushbu tadqiqot ishimizda o'z aksinei topgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, «g'oya» deb, inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy harakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni «harakatga keltiradigan, ularni maqsad-muddao sari yetaklaydigan fikrga aytildi.

G'oyalarning turlari to'g'risida yoshlarga musiqa madaniyati darslari orqali batafsil tushuntirish lozim.

G'oyalarning turlari ko'p. Tafakkurning mahsuli sifatida g'oya tevarak olamni o'rnanish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari — ilm-fan, din, falsafa, san'at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq — muayyan bir g'oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi.

Ma'lum ma'noda aytish mumkinki, har bir ong sohasining o'z g'oyalari mavjud bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda musiqaning o'smirlarda ham musiqiy-nazariy, ham estetik, ham milliy istiqlol g'oyalari haqidagi bilimlarni shakllantirishdagi roli beqiyosdir.

Barkamol inson shaxsini shakllantirish milliy g'oyaning asosiy maqsadi ekan, unga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, manaviy barkamol kishilargina shaxsiy va umummilliylar manfaatlar uyg'unligini teran anglaydi, Vatan ozod bo'lmasa, shaxs ozod bo'la olmasligini tushunadi.

Demak, milliy g'oyaning asosiy maqsadlaridan biri har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash ekan, avvalo, "komil inson" so'ziga urg'u berib o'tsak. Komil inson-bu ozod shaxs, erkin fikr yurituvchi, o'z xalqining ideallari uchun kurashuvchi inson, o'z Vataniga halol xizmat qiluvchi kishidir.

Ana shularni nazarda tutgan holda biz «**Musiqa darslari orqali o'quvchi yoshlarda Vatanga muhabbat va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish uslublari**» mavzusini bitiruv malakaviy ilmiy ishmiz mavzusi sifatida tanladik.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I. A. “O’zbekiston buyuk kelajak sari” T., O’zbekiston, 1998
2. Karimov I.A Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.–T.: «O’zbekiston», 2000.–112 b
3. Karimov I.A O’zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1 tom, Toshkent, "O’zbekiston" 1996
4. Karimov I.A Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3 tom, Toshkent, "O’zbekiston", 1996
5. Karimov I.A Maqsadimiz – tinchlik, barqarorlik, hamkorlik. Toshkent, "O’zbekiston", 1995
6. Karimov I.A «Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodini va buyuk kelajakka ishonchdir» Toshkent.; 2000
7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T: Ma’naviyat, 2008
8. Abdullayeva Sh.A., Axatova D.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Ma’ruzalar matni.Navoiy, 2003 - 2005
9. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o’qitish texnologiyalari. – Toshkent, 2001
10. Azizzxo’jayeva N. «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat» Toshkent:, O’qituvchi., 2006
11. Azizzodjayeva N.N «O’qituvchi mutaxasisligiga tayyorlash texnologiyasi» –Toshkent., 2000
12. Akbarov. I. " Musiqa lug’ati " Toshkent., «San’at» , 1987
13. Axatova D.A. Pedagogika fanlarini o’qitishda innovation usullardan foydalanish. – Buxoro: «Pedagogik mahorat» jurnali, 2005
14. Bajenova «Pedagogik izlanish», Toshkent «O’qituvchi»., 1990
15. Ziyomuxammadiyev B,Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – Zamonaviy o’zbek milliy modeli Toshkent ., 2009
16. Ibrohimov O. va boshq. O’rta maktab 7 – sinf uchun darslik., T., 2008
17. Yo’ldoshev J. G’ «Ta’lim yanginalish yo’lida» Toshkent., 2002
18. Karimova D. «Musiqiylar pedagogik mahorat asoslari»T., TDPU.,2008
19. Milliy istiqlol g’oyasining asosiy maqsad va vazifalari., Ijtimoiy –

- siyosiy nashr., «Ijod dunyosi» nashriyot uyi ., Toshkent., 2002
20. Mamadaliyev F. «Milliy musiqa ijrochiligi masalalari» Toshkent.,  
Yangi asr avlodi, 2002
- 21 Mirzayev "Yurt iqboli, Inson kamoli ilm bilan", «Oila  
va jamiyat», Toshkent .1996
22. Nurmatov H va boshq. O'rta maktab 3 – sinf uchun darslik., T., 2008
23. Odilov A.O.«O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi» Toshkent.;1995
24. Odilov A.I. «Musiqiy ta'limda pedagogik mahorat asoslari»,  
(Ma'ruzalar matni) Samarqand, SamDU., 2009
25. OdilovA.I. «O'zbek xalq cholg'u asboblari tarixi», SamDU., 2010
26. Odilov A. «Musiqa o'qitishning innovasion texnologiyalari»  
(O'quv uslubiy majmua) – Samarqand – SamDU nashri ., 2011
27. Shayxova X, Nazarov Q "Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy  
kamolot". Toshkent ., "O'zbekiston" 1992
28. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi (Ma'ruzalar matni), TDPU 2000
- 29 Sharifxo'jayev M "Vatan va millat muqddasdir". Toshkent., 1996
30. Xo'jamurotov I."Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zligini anglash"  
Toshkent., «O'zbekiston» 1991
31. Xasanov A. «Musiqa va tarbiya»., Toshkent., «O'qituvchi» ., 1993
32. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni va kadrlar  
tayyorlash milliy dasturi . Toshkent.. 1997
33. « O'zbekiston Milliy Enseklopediyasi» 1 – 10 jildlar «O'zME»  
Toshkent., 2006
34. Qo'ldosheva S. «O'zbekistonda qo'shiqchilik san'ati tari masalasiga  
doir» Toshkent ., Istiqbolni belgilash uslubiyat markazi., 2002
35. Qodirov G'.Q «Musiqa psixologiyasi» Toshkent.; Musiqa – 2007
36. Qudratov I. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik  
tarbiyalash Toshkent., «Fan» 2009

# **MUNDARIJA**

**K i r i sh.....8**

## **I – BOB.**

### **O’quvchilarni musiqa darslari orqali tarbiyalashda Vatanga muhabbat va milliy g’oya tushunchalarini shakllantirishning nazariy pedagogik asoslari**

- 1.3. Musiqa madaniyati darslarida o’quvchilarni Vatanparvarlik g’oyasini shakllantirish.....16**
- 1.4. Yosh avlod ongiga milliy istiqlol g’oyasini singdirishda musiqa madaniyati fanining vazifalari.....25**

## **II – BOB**

### **O’quvchilarini musiqa madaniyati darslarida ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashda milliy g’oya va Vatanga muhabbat tuyg’usini shakllantirish mazmuni, shakli, uslublari**

- 2.1. Musiqa darslari jarayonida yoshlarda milliy istiqlol g’oyasini shakllantirishning uslubiy tamoyili.....32**
- 2.2. O’quvchilarda Vatanparvarlik g’oyasini tarbiyalashda musiqiy repertuar tanlashning mohiyati .....42**

**X u l o s a..... .51**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....53**